



# VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 28-fevral  
№9 (3123)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

## IFTIXOR

### Sirojiddin SAYYID, O'zbekiston xalq shoiri ARMIYA VA TARBIYA

Yangi O'zbekistonning milliy armiyasida  
Shoirilar ham safdoshdir ta'lim-tarbiyasida.

Ya'ni har bir ijodkor, har yozuvchi yo adib –  
Sardor bo'lmog'i kerak bilimdon va botartib.

Har jangovar askarning biz ham teng-to'shlarimiz,  
Qalam-la qurollangan Qurolli Kuchlarimiz.

Kim Temurxon boboning qudratini bilmagan?  
Bobo orzu qilgan, lek xayoliga kelmagan:

Kimki shubha qilgaydir dovrug'i, kamoliga –  
"Temurbeklar maktabi" javobdir savoliga.

Inchunin har bir zobit, har sipoh, har bayroqdor,  
Kechgan shonli janglardan bo'lmog'i shart xabardor.

Millat xoki poylarin tavof qilsa arziydi,  
"Zafarnoma" yaratmish mavlono Ali Yazdiy.

Davlati poydorlikning mangu guvohnomasi –  
"Zafarnoma" emas, bu – buyuk xalq shohnomasi.

O'pgil, ey Yevropa sen, barmoq, uzuklaridan,  
Hanuz saboq olgaysan "Temur tuzuklari"dan.

Butun olam ahliga harbiy nomamdir mening,  
Jangnomam, kurashnomam – "Boburnoma"mdir mening.

Vatan – jon va tandadir, jon Vatan – jon va tandir,  
Vatanparvar insonlar jon chekib, jon tikkandir.

"Iyolu Vatan uzra to joni bor, – deb aytgan,  
Kishi harb etar toki imkoni bor", deb aytgan,

Navoiy bobomizdan timsol keltirsam agar,  
Necha ming ko'ngillarni uyg'otmog'i muqarrar.

Har shoir, har askarga qat'iyat, shiddat kerak,  
Azm-u shijoat kerak, ilm-u ma'rifat kerak.

Bunda har on asqatar aql-u fahm-u farosat,  
Dunyoviy bilimlar ham matonat va sadoqat.

Bu qanday dilbar diyor, dil diyor, dildor diyor,  
Askarlari ham bedor, shoirlari ham bedor.

Ammo olam avzoyi – kecha-kunduz talotum,  
Boisin aytolmagay biror Alp yo Aflotun.

Fitrat domla aytganday: Dunyo – kurash maydoni,  
Bir tomoni toshqinlar, yong'indir bir tomoni.

Dunyoning dunyolikka qolmaganday holi ham,  
Qirg'inbarot urushlar davom etar hali ham.

O'ttiz yetti million xalq, o'ttiz yetti million qalb,  
Qalbm, sen ham shu safda hushyor bo'lqil, uyg'on, qalq!

Toki xavf-u xatar bor, shudir temir tarbiya:  
Har birimiz – posbonmiz, har birimiz – armiya.

Xalq-u Vatan tashvishi – barchaning teng ishidir,  
Bugun har bezovta qalb – xavfsizlik kengashidir.

Shu boisdan tinchlig-u tinch osmoningga sharaf,  
Biz ezgulik tarafmiz, bizlar xalqimiz taraf.

Mening ham ko'ksim to'la g'urur bilan iftixor:  
O'zbek armiyasi bor! O'zbek xalqi ham poydor.

O'ylasam shul Vatanni – jimirlar ko'ngillarim,  
Ey, mening sarbozlarim! Mening generallarim!

Shonli, shavkatli diyor, shu safda men ham borman,  
Ne baxtkim, saodat-u baxtingga daxldorman.

Dunyoda Vatan tanho, xalq-u millat yagona,  
Millat bedor bo'lsa gar, tinch bo'lgaydir zamona.

O'ttiz yetti million xalq, yana shuncha dil, yurak,  
Hushyor yashamoq kerak! Hushyor yashamoq kerak!

Million-million beshikda – chaqaloqlar lashkari,  
Tamshanib o'smoqdadir – kelajakning askari.

Lashkar bexatar bo'lmas, aytib ketgan bobolar,  
Onalar duo aylar, duo aylar momolar.

Ona yurt, ota makon, men ham bir askaringman,  
Uyg'oq qalamim birlan xizmatkor navkaringman.

Angladimki: dunyoda na jon, na tan abadiy,  
Faqat Vatan abadiy, faqat Vatan abadiy.

Mening ham har bir she'rim – hayot-u mamotimdir,  
Oliy Bosh Qo'mondonga ichgan qasamyodimdir.



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
vatanparvar-bt@umail.uz  
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi  
instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

## Ijtimoiy himoya



Polkovnik Otabek YULDASHEV,  
O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining  
axborot siyosati masalalari bo'yicha  
maslahatchisi - matbuot kotibi

## MUNOSIB RAG'BAT

**B**ugungi kunda jahon axborot makonida keskin kurash kechayotgani, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda mafkuraviy tahdidlar ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday sharoitda mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash, yosh avlodni ma'naviy barkamol va vatanparvar etib tarbiyalash, shuningdek harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini mustahkamlash muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.



2024-yilda mazkur yo'nalishda qabul qilingan bir qator huquqiy hujjatlar asosida qo'shinlarda ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, bu boradagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish maqsadida yozuvchi va shoirlar, olimlar, fan va san'at arboblari ishtirokida **33 mingga yaqin** ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbir tashkil etildi. Bunday tashabbuslar orqali nafaqat Qurolli Kuchlar safidagi harbiylar, balki yosh avlodning ham vatanparvarlik tuyg'usi yuksaltirilmogda.

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq, "**Jizzax tajribasi**" asosida mamlakat bo'yab "**Jasorat maktabi**" harbiy-o'quv yig'inlari o'tkazilib, mazkur yig'inlarga jami **5,5 mingdan** ziyod uyushmagan va profilaktik hisobda turgan yosh jalb qilindi.

Shuningdek, yil davomida harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va soha faxriylarining ijtimoiy himoyasi e'tibor markazida bo'ldi. Xususan, harbiylarning **839 nafar** farzandi oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli asosda o'qishga kirdi, harbiy xizmatchilarning **850 nafar** rafiqasi va **315 nafar** harbiy pensioner ish bilan ta'minlandi.

Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun harbiylar, ularning oilalari va faxriylarimiz yuz-ko'zlarida chuqur ishonch va minnatdorlik hissi balqib turibdi.

Ko'rsatilayotgan e'tibor va uning natijasi milliy armiyamizning har jabhasida aks-sado bermoqda. Qurolli Kuchlar akademiyasi

misolida aytadigan bo'lsak, harbiy ta'lim muassasasi jamoasi harbiy kadrlarning jismoniy tayyorgarligi va g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, IT va zamonaviy texnologiyalarini qo'llay oladigan, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega ofitserlarni tayyorlash borasida qator tadbirlarni amalga oshirdi. O'tgan yili turli tahdid va xavflarni hamkorlikda bartaraf etish maqsadida kuch tuzilmalari bilan birgalikda harbiy ta'lim muassasalarining kursant va tinglovchilari o'rtasida **9 marotaba** ikki pog'onali qo'shma qo'mondonlik o'quvi hamda **2 marta** strategik harbiy-ish o'yinlari o'tkazildi.

Bunda ofitserlarning jangni rejalashtirish va boshqarish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish, Qurolli Kuchlar tizimini raqamlashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiylar va yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, ularni maktabdan boshlab harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi qator vazifalar parallel ravishda hamjihatlikda olib borildi.

Akademiya tomonidan mamlakatimizning operativ-strategik bo'linishidan kelib chiqib, real sharoitlarga moslashgan operativ-taktik vazifalar ishlab chiqildi. Kursant va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida "**Xavfsizlik asoslari. Xavf va tahdidlar, Milliy manfaatlar**", "**Sun'iy intellekt va uning harbiy sohada qo'llanilishi**" kabi fakultativ kurslar yo'lga qo'yildi.

Akademiya jamoasi davlatimiz rahbarining mamlakatimiz taraqqiyoti uning mudofaasiga uzviy bog'liqligi haqidagi xulosalari va qo'yan topshiriqlarni to'laonli

bajarish yo'lida kuch-g'ayrat bilan odimlamoqda.

Hozirgi zamonaviy qurolli to'qnashuvlarda sun'iy intellekt, robot, raketa, dron va ularga qarshi kurash vositalari keng qo'llanilmogda. Globallashuv va gibrid urushlar kechayotgan jarayonda IT va axborot texnologiyalari, dronlar va ularga qarshi kurashish sir-asrorlarini chuqur o'rganish maqsad qilinib, xorijlik hamkorlar bilan barpo etilgan kibexavfsizlik, dasturlash laboratoriyalarida maxsus o'quv kurslari dasturlari bo'yicha mustahkam aloqalar o'rnatilmogda.

Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali harbiy xizmatchilarning sog'lig'ini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tibbiyot muassasasi hisoblanadi. U nafaqat Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi, balki ularning oila a'zolari hamda faxriylar uchun ham yuqori malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelmogda.

Ushbu muassasa faoliyati nafaqat harbiy xizmatchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, balki armiyaning umumiy jangovar tayyorgarligi va mudofaa qobiliyatini

mustahkamlashga ham bevosita bog'liq. Chunki sog'lom va jismonan baquvvat harbiylar mamlakat xavfsizligining ishonchli kafolatidir.

Bugungi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitali respublikamizdagi eng zamonaviy, keng qamrovli diagnostika va davolash imkoniyatlariga ega bo'lgan tibbiyot maskanlaridan biriga aylandi. O'tgan yilning o'zida bu yerda **4 mingga yaqin** jarrohlik amaliyoti o'tkazilib, ulardan **46 foizi** yuqori texnologik operatsiyalardir. Aorto-koronar shuntlash, yurak klapanlarini protezlash, yurak toj tomirlarini stentlash, tos-chanoq va tizza bo'g'imlarini endoprotezlash amaliyotlari shular jumlasidandir.

O'tgan yili og'ir jarohat olgan yoki kasallikka chalingan harbiy xizmatchilarni tezroq oyoqqa qo'yish, xizmati va oilasiga qaytarish maqsadida eng zamonaviy reabilitatsiya markazi ishga tushdi.

Davlatimiz tomonidan nafaqat gospitalarni zamonaviy tibbiy texnika bilan ta'minlash, balki u yerda faoliyat olib boruvchi shifokorlarning salohiyatini oshirishga ham katta e'tibor qaratilyapti.

Bugungi kunda armiyamiz faqatgina moddiy-texnika bazasi bilan emas, balki strategik rejalashtirish, operativ boshqaruv va jangovar tayyorgarlik tizimi jihatidan ham jahon talablariga mos ravishda takomillashib bormoqda. Qurolli Kuchlarimiz qo'shin turlari o'rtasidagi hamkorlik

harbiy xizmat nufuzini oshirish, armiya saflariga yuqori malaka va intizomga ega kadrlarni jalb etish hamda mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kuni kecha e'lon qilingan "**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida**"gi Prezident qarorida ham bu yo'nalishda ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasini ko'rish mumkin.

# YUKSAK MEHNATLARGA RUHLANTIRADI



kuchayib, harbiy amaliy mashg'ulotlar doirasida yangi taktik usullar samarali o'zlashtirilmoqda. Bu esa armiyamizning jangovar salohiyatini keskin oshirish bilan birga, har qanday tahdid va xavf-xatarlarga qarshi munosib javob qaytarish imkoniyatini yanada mustahkamlaydi.

Xabaringiz bor, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularni munosib maosh, ijtimoiy kafolatlar va ta'minot bilan ta'minlash davlatimiz mudofaa siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun zamonaviy turarjoy majmualari barpo etilishi, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining takomillashtirilishi, bolalarining sifatli ta'lim olishiga sharoit yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, harbiylarning ma'naviy va jismoniy tayyorgarligini yanada oshirish, ularni uzluksiz ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda. Bunday chora-tadbirlar

Qarorga ko'ra, harbiy xizmatchilarga turarjoyi ijaraga olganlik (*ijarada turganlik*) uchun to'lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdori **20 foizga** oshiriladi. Shuningdek, ipoteka

kreditlarini ajratish ko'rsatkichlari asosida uy-joy bilan ta'minlanadigan, kalendar hisobida **10 yildan ortiq** harbiy xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olish (*qurish*) uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori uy-joy hisoblangan qiymatining **35 foizi** miqdorida belgilanadi.

Qurolli Kuchlarning kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan, amaldagi sarf-xarajatlar doirasida turarjoy bilan ta'minlanmagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibidagi harbiy xizmatchilariga turarjoyi ijaraga olganlik bo'yicha har oylik pul kompensatsiyasi to'lovlari belgilandi.

Hatto oila a'zolari 3 kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda harbiy xizmatchilarning ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari **50 foizga** oshirilishi qarorda belgilab qo'yildi.

Davlat tomonidan harbiy xizmatchilarga berilayotgan bu kabi ijtimoiy kafolatlar va qo'llab-quvvatlash choralari ularning jangovar ruhiyatini mustahkamlash, xizmatga bo'lgan sadoqatini oshirish va armiyaning umumiy mudofaa qobiliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida mehnat qilayotgan fidoyi va vatanparvar yurt himoyachilarimiz berilayotgan bu kabi e'tibor va rag'batdan yanada kuch olib, yelkalaridagi yuksak mas'uliyatni teranroq his etishi shubhasiz.

Kichik serjant

## Husan BULTAKOV:

– Biz harbiylar sharaflari va mas'uliyatli xizmat burchimizni ado etish davomida davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bizga bildirilayotgan yuksak ishonch va g'amxo'rliklarni hamisha his etib, undan bahramand bo'lib kelmoqdamiz. Prezidentimizning harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan navbatdagi qarori bizni yanada ruhlantirdi.

Xususan, turarjoy ijarasi uchun to'lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdorining **20 foizga**, oila a'zolari 3 kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari **50 foizga** oshirilgani, harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olish uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori uy-joy hisoblangan qiymatining **35 foizi** miqdoriga yetkazilgani bizni mamnun etdi. Bu kabi g'amxo'rlik va imtiyozlarni bizga nisbatan bildirilgan yuksak ishonch va e'tibor namunasi deb bilaman. Ishonchga, Vatan himoyachisi nomiga doim munosib bo'lishga bor kuch va bilimimni safarbar qilib, barchasiga munosib xizmatlarim bilan javob qaytaraman.

Qurolli Kuchlarda o'tkazilgan islohotlar tufayli bugun milliy armiyamiz tom ma'nodagi professional armiya darajasiga yetdi. Uning tarkibida o'z kasbining haqiqiy fidoyilari xizmat qilyapti. Ana shunday mard, fidoyi, barkamol yoshlar safida ekanim menga cheksiz faxr, iftixor baxsh etadi.

Kichik serjant

Husan BULTAKOVning rafiqasi

## Ra'no BULTAKOVA:

– Davlatimiz rahbarining joriy yil 24-fevraldagi qarorini katta hayajon bilan o'qidim. Ta'kidlashni istardimki, biz – harbiylarning oilalariga e'tibor va g'amxo'rlik yildan yilga oshib, ko'rsatilayotgan yordam qamrovi kengayib bormoqda. Turmush o'rtog'im xizmat taqozosi bilan yurtimizning turli garnizonlarida faoliyat olib bordi. Shu bois men ham har xil shart-sharoitlarda yashab, harbiycha hayotning past-u balandliklari, o'ziga xos qiyinchiliklari bilan yaxshi tanishman.

Oila bekasi sifatida, avvalo, Vatanni himoya qilishdek eng sharaflari, el-u yurt ardog'idagi, davlatimiz rahbariyati e'tiboridagi kasbni tanlagan inson bilan hayot yo'limni bog'laganimdan, unga yelkadosh bo'layotganimdan faxrlanam. Farovon turmush kechirishimiz uchun qilinayotgan sa'y-harakatlardan minnatdormiz.

## Mardi maydonlar



# MAQSAD ANIQ, NIYAT QAT'IY

Qorli ob-havoni olib kelgan qish fasli butun mamlakatimiz bo'ylab o'zining ta'sirini o'tkazishga harakat qilmoqda. Bu ta'sir, ayniqsa shimolda juda qattiq sezilib, iliq kunlar shiddat bilan sovuq kunlarga almashdi. Yog'ib o'tgan qor qish fasli hukmronligini ko'rsatib, yangi sinovlarni yurtdoshlarimizga olib keldi.

harakatlanish, taktik vazifalarni bajarish, muhandislik tayyorgarligidan me'yorlarni bajarayotgan yurt o'g'lonlarining qat'iy maqsadi sabab havoning sovuqligi ularga ham sezilgani yo'q.

Jangovar vazifalarni bajarishda bo'linma tarkibida maxsus harakatlarni olib borish, cho'lda razvedka-qidiruv tadbirlarini o'tkazish, minalashtirilgan maydondan o'tish hamda boshqa mashqlarni bajarayotgan serjantlar

yaralanishda birinchi daqiqalarda ko'rsatilgan tibbiy yordam tufayli inson sog'lig'ini saqlashga erishish va aksincha jabr ko'rganning salomatligiga jiddiy putur yetkazish mumkin. Nukus harbiy gospitali qoshida tashkil etilgan "Taktik medik (*paramedik*)lar" o'quv kursida har bir harbiy xizmatchining o'ziga va safdoshlariga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish amallari va usullarini har qanday sharoitda mukammal bilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Mana, navbatdagi amaliy mashg'ulotlarda ham kunning sovuq bo'lishiga qaramay, kurs tinglovchilari tomonidan jangda yaralangan safdoshiga birinchi tibbiy yordam



Ana shunday sovuq va nam ob-havo injiqliklarini yengib kelayotgan harbiy xizmatchilar har qanday vaziyatda ham yurt tinchligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimiz osoyishtaligini mustahkam qo'rg'ondek himoyalash, kasbiy malaka va mahoratini yuksaltirish, jangovar tayyorgarligini oshirishni birzum ham to'xtatgani yo'q.

Nukus garnizonida joylashgan harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlik rejasiga asosan, ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar malakali ofitser va yo'riqchi serjantlar tomonidan yuksak saviyada olib borilib, harbiy xizmatchilarning sovuq ob-havo sharoitida matonat va irodasini toblash,

qo'yilgan o'quv-jangovar vazifalarni sifatli bajarilishiga e'tibor qaratilmoqda.

Shimoli-g'arbiy sarhadlarimizda qish mavsumining sovuq kelganiga qaramay, harbiy qism hududida joylashgan kichik dala-o'quv maydoni hududidagi jangovar shaharchalarda yo'nalishlar bo'yicha mashg'ulotlar qizg'in olib borilmoqda. Ertalabdan havo harorati juda past darajani ko'rsatmoqda. Biroq ona tabiatimizning bunday injiqligi mashg'ulotga kelgan muddatli harbiy xizmatchilarga to'siq bo'la olmaydi. Maqsad aniq, niyat qat'iy, rejadagi mashg'ulotlar o'tkazilishi shart!

Qurollardan foydalanish, birgalikda jang maydonida

bir necha yillik xizmatlari davomida havoning injiqliklariga sabot bilan bardosh berishga ko'nikma hosil qilib bo'lgan. Mustahkam ko'nikma, kasbiy mahorat, metin iroda, albatta, mana shunday qiyin mashqlarda, murakkab vaziyatlarda toblanadi, sayqallanadi va natijada yuksaklikka erishiladi. Ularning tajribasi muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar uchun dasturilamal bo'lib, harbiy xizmat qiyinchiliklarini yengib o'tishda irodasini toblaydi.

Jangda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning samaradorligi, albatta jarohatlanganga yordam ko'rsatish vaqti va sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Jarohatlanish, zararlanish yoki

ko'rsatish mashqlari sifatli olib borildi.

Artilleriya olovini boshqarish, jangda shartli dushman kuchlarini masofadan turib yakson qilish, to'plardan samarali o't ochish uchun mo'ljalga olish moslamalariga dastlabki qo'yilmalarni belgilashni o'rganayotgan yurt o'g'lonlari mashg'ulotlardan maksimal darajada ko'proq bilim va tajriba olishni, o'z qurolidan mohirlik bilan zarba berishni maqsad qilib, bu yo'lda sovuqda ham o'z mahoratini toblab kelmoqda.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

## Mahorat



Tinchlik barcha sohalar rivoji, xalq turmushi farovonligi va yurt taraqqiyoti uchun poydevordir. Shu bois butun dunyoda tinchlik doimo eng ulug' ne'mat sanalib, uni asrash chinakam mard insonning sharafli burchi hisoblanadi.

# AQL VA KUCH BIRLIGI

Demak, tinchlik borki uning ortida jasorat va chidam, halovat hamda sergaklik, mashaqqat va huzur bor.

Kunni tunga ulab, yurt sarhadlarini qo'riqlayotgan Vatan himoyachilarining jangovar shayligi muntazam oshirilib borilayotgani davr taqozosi. Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani kabi Markaziy harbiy okrugining Jizzax va Kattaqo'rg'on garnizonlaridagi harbiy qismlarda ham harbiy xizmatchilar bilan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilayotgani, mashg'ulotlarda chiniqqan Vatan posbonlari esa turli sport hamda Xalqaro armiya o'yinlari va boshqa musobaqalarda yuqori marralarni zabt etib kelayotgani sir emas.

Mashg'ulotlar davomida shaxsiy tarkibning bilim va ko'nikmalari jangovar sharoitlarga yaqin muhitda oshirilayotgani, ularni turli jangovar sharoitlarga moslashtirish, jismoniy chidamlilik va charchoq, stress hamda yuqori bosim ostida ham samarali ishlashga o'rgatayotgani qo'yilgan maqsadimizning nechog'li yuqori ekanidan darak beradi.

Olib borilayotgan navbatdagi harakatlarda ham shaxsiy tarkibning zamonaviy jang usullarini o'zlashtirish texnikasi, kichik



taktik bo'linmalarning mustaqil harakatlanish pozitsiyalari ko'rib chiqildi. Bunda harbiy xizmatchilarning mustahkam irodasi namoyon bo'lib, qo'yilgan vazifalarni sifatli va tezkor bajarishga bo'lgan ishtiyiqi yanada oshadi.

Olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlarda bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va hamkorlikni rivojlantirish borasida boshqaruv tizimlarini markazlashgan emas, balki modulli va moslashuvchan shaklda rivojlantirish, jang maydonida harakatlanishni hujum yoki mudofaa strategiyalarida amaliyotda sinash, harbiy texnikalar va qurollarni boshqarish bo'yicha malakalari mustahkamlanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar shaylikni kuchaytirish borasidagi yangicha yondashuvlar harbiy xizmatchilarga nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar, shu bilan birga shaxsiy tarkibda birodarlik xislatlarini mustahkamlab, muvaffaqiyat qozonish ishonchini ta'minlaydi.

**Ahad JABBOROV**

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati

## Inson qadri uchun



“ Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy armiyamiz salohiyatini yuksaltirish bilan birga bu tizimda faoliyat yuritayotgan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish borasida ham o'z aksini topmoqda.

qamrovli sayyor qabulda murojaatchilarning muammolari atroflicha o'rganildi.

Xususan, mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev qabulida o'ndan ortiq murojaat tinglanib, ularning deyarli barchasi ijobiy yechim topdi. Murojaatlar asosan uy-joy, ish o'rini ko'chirish, oilaviy muammolarni bartaraf etish, tibbiy ko'mak ko'rsatish masalalari bo'yicha bo'ldi. Bu borada Mudofaa vazirligining tegishli boshqarma boshliqlari va mas'ul ofitserlariga topshiriqlar yuklatildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Milliy gvardiya, DXX Chegara qo'shinlari, IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonliklari o'rinbosarlari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyati tomonidan kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari va fuqarolar murojaatlari tinglandi. Mutaxassislar ko'rsatmalari va takliflari bo'yicha ularning har biri ijobiy yechim topishi kafolatlandi.

– Bugungi sayyor qabul tadbirining barcha kuch tuzilmalari va O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi ishtirokida bir joyda tashkillashtirilishi milliy armiyamiz mudofaa qudratini mustahkamlash, qo'shnlarning harbiy tayyorgarligini oshirishga yanada ko'proq xizmat qiladi, – deydi polkovnik Xudayar

## JAMIYATNING ISHONCHLI POYDEVORI



Ayniqsa, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekanini alohida qayd etish mumkin.

Bu borada davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining o'ttiz uch yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida ham to'xtalib, jumladan shunday degan edi: “Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy himoya qilish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash bundan buyon ham diqqatimiz markazida bo'ladi.

Ana shu muhim vazifalarni bajarishda, hech shubhasiz, harbiy-ma'muriy sektorlar,

davlat va jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtiroki g'oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki xalq bilan muloqot va maslahat asosida, uning ishtirokida amalga oshirilgan ish, albatta, qudratli ijobiy kuchga ega bo'ladi”.

Shu ma'noda hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar tufayli harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ish bilan ta'minlanib, yanada ko'proq qulayliklarga ega bo'lmoqda. Ularning jamiyatdagi mavqeyini har tomonlama mustahkamlash borasida sayyor qabul tadbirlari muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Toshkent viloyati hududida joylashgan harbiy qismda kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari, ularning oila a'zolari uchun tashkil etilgan keng

Kalendarov. – Chunki biror muammo girdobiga tushib qolgan harbiy xizmatchidan jangovarlik, burchiga sadoqat kutish mantiqsizlik. Jamiyatning har bir qatlamida muammolar uchrab turadi. Shu jumladan, milliy armiyamizda ham. Bu kabi sayyor qabul tadbirlari ana shu muammolarga barham berishda eng to'g'ri yo'ldir. Bugun yuzdan ortiq murojaat ko'rib chiqildi va mutaxassislar tomonidan ularni ijobiy hal etilishi uchun ko'rsatmalar berildi. Qisqa qilib aytganda, qabulga kelgan Vatan himoyachilari uyiga, xizmat vazifasini bajarishga ishonch bilan qaytdi.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
“Vatanparvar”



Esse



# YURTIMNING SUVI HAM BOSHQACHA

“Sizni ko‘rib qolganim zab ish bo‘ldi-da, aka. O‘tgan safar yaxshi gurgunglasha olmagandik. Tushunaman, ish ko‘p. Bu zamonda kim ham bekorchi bo‘lardi?! Hamma band. Menmi? Jizzaxdan qaytyapman. Haa, xizmat safari bilan kelgandim.”

“Forish” tog‘ dala-o‘quv maydoniga hech borganmisiz? Ajoyib joy-da u yer! Tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Havosini aytmayisizmi, musaffo va toza. Dil quvnaydi. Ayniqsa, tongni qushlarning ovozi bilan qarshi olasiz. Moviy gumbazda to‘p-to‘p bo‘lib suzib yurgan bulutlar o‘yingaroq, istasa, quyoshning yuzini to‘siq oladi yoki yomg‘ir bilan yerni ayovsiz savalaydi. Lekin bahori o‘zgacha. Hamma joy yashnab ketadi. Qishmi? U ham qattiq keladi. Atyapman-ku, tog‘li hudud deb.

Ana shu joyda bir hafta bo‘ldim. Aka, u yerdaligimda bir harbiy xizmatchi bilan tanishib qoldim. Tengqurim ekan. Yuragi keng, bilimli. Albatta, ko‘p kitob o‘qigan. Vaqtini boshqaradigan odamlar bo‘ladi-ku, o‘shalariday intizomli, bir so‘zli. Armiyaga kelganida 21 yoshda bo‘lgan. Hozir Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarning birida bosh serjant lavozimida faoliyat olib boryapti...

Tog‘lar orasida bir buloq bor. Yer qaridan chiqib keladi. Suvini ichsangiz, qaymoqdek tomog‘ingizdan yumshoq o‘tadi. Ko‘plar u chashmani shifobaxsh deb hisoblaydi. Qisqasi, Olim Toshqorayev bilan ikkimiz buloq yonidagi tosh ustida o‘tirib, gurgunglashdik.

– Odamzod hech narsa yemasa, bir necha kun yashay oladi, – dedi u qo‘lidagi suvni tepaga ko‘tarib, – ammo suvsiz ko‘pga bormaydi. Tanasi bardosh bermas ekan.

U dumaloq ko‘zlarini biroz qisib, ingichka lablarini mahkam tishladi. Yutinganida kekirdagi bir qimirlab oldi.

– Inson tanasining taxminan oltinchi foizini suv tashkil etadi, deyishadi-ku, – dedim beparvo. Biroq ko‘zlarimni undan uzmasdim.

Bilasiz-ku, suhbatdoshlarimni sinchkovlik bilan o‘rganishga harakat qilaman. Har bir gap-so‘ziga ahamiyat qaratib, o‘zini tutishini eslab qolishga

urinaman. Siznimi?! Ming afsuslar bo‘lsinki, hozircha yo‘q. Hamon kuzatuvimdasiz.

Olimmi? U gaplarimni eshitmagandek jim o‘tirardi.

– Asab tizimi, miya hujayralarining yaxshi ishlashi, yurak urishi, o‘pka, terining qurishi va nam bo‘lishi, tomirlardagi qonning normal holda oqishi... bularning hammasi suv bilan bevosita bog‘liq, – dedim gapimni davom ettirib. Chunki bu kabi ma‘lumotlarni bilmasak, endi uyat bo‘lar, aka.

Aytganacha, siz ham eshitgansiz-ku, to‘g‘rimi?

Yelkalarimni keng qo‘yib yubordim. Keyin o‘tiranimdan uvusha boshlagan oyoqlarimni ham uzatib oldim.

– Musobaqalarda ishtirok etish uchun ko‘plab davlatlarda bo‘ldim, – dedi u xira ovozda. – Tabiiyki, musobaqalardan keyin chanqovim kuchayardi. To‘g‘ri, o‘sha mamlakat suvidan ichardim. Ammo chanqog‘im sira ham bosilmas edi.

U buloqdan hovuchlab suv olib, uzoq simirdi. So‘ng nam qo‘llari bilan peshonasini shoshmay artidi. Shunda quyoshdan qoraygan yuziga qon yugurgandek bo‘ldi. Chehrasi birdan ochildi. Vujudu daf‘atan kuchga to‘ldi. Gavdalari rostlanib, ko‘zlari qayta chaqnay boshladi.

– O‘sha chanqoqni faqat o‘zimizdagi suv bosa oladi xolos, – dedi Olim.

Uning harakati menga bolalarning maqtanishiga o‘xshab ko‘rindi.

– Hamma suv ham bir suv, – dedim kulimsirab. – Birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydi. Faqat joydan kelib chiqib, suvning ta‘mi o‘zgarishi mumkin xolos.

Toshqorayev indamadi. Lekin lablarida siniq tabassum qotib qoldi. Keyin yuzini tirishtirib oldi. Sezdim, nimadandir qattiq jahli chiqayotgandi.

– Ta‘mi o‘zgaradi, deng... – dedi Olim tilga kirib. Ammo hamon o‘sha-o‘sha ko‘rinishda turibdi.

Bizdan bir necha chaqirim narida harbiy xizmatchilar o‘qotar qurollardan nishonlarni mo‘ljalga olayotgan edi. Ular bosayotgan tepki zarbidan avtomat stvolidan otilib chiqayotgan o‘qlar ovozi quloqqa kelib og‘ir urilyapti.

– Qurollan uzgan o‘qim hech qachon nishon markaziga tegmagan, – dedim mavzuni shu tomonga burib. – Buni aytishga ham odam uyaladi-da. Axir biz ham shu sohadamiz.

– O‘qni nishonga tekizishni-ku, o‘rgansa bo‘ladi, – dedi u xira ovozda. Ko‘zlarini to‘g‘riga qadab olgandi, – biroq biz o‘ylagan muhabbatni har qancha harakat qilmang, o‘zgarlar ko‘ngliga joylab bo‘lmaydi.

Tepamizdan nar kaklikning sayragan ovozi eshitildi. Ikkimiz ham uning tovushiga quloq osdik. Keyin:

– Ishqi borlar qalbi tiriklar sanaladi, – dedim irshayib. – Sevishni bilmasangiz, yashashning mazmunini anglamabsiz.

Toshqorayev o‘zini zo‘rlab jilmaydi. So‘ng:

– Fikrlaringiz har doim bir-biriga zidmi? – dedi.

Ustundan sovuq suv quyib yuborgandek sergak tortdim. Kishi to‘shakda uzoq vaqt yotib qolsa-yu, keyin oyoqqa turganida tanasi qanday qaqsaydi, vujudimda ana shunday og‘riqni his qilayotgandim. Chuqur chuqur nafas olaman-u, bo‘g‘zimdan nariga o‘tmasdi. O‘pkam achishadi. Go‘yo kimningdir qo‘li tomog‘imga chunonam chirmashib olganki, uning uzun-uzun barmoqlari orasidan hali-beri chiqib kela olmasligimni bilardim.

Churq etmay, boshimni xam qilib, o‘tiraverdim. O‘zimni aybdordek his qilyapman. Ichimdan zil ketgandim, aka. Chilparchin bo‘lgan xayollarimni tartibga keltirolmay, adoyi tamom bo‘la boshladim. Ishoning, hatto qochib ham ketgim keldi. Shunday paytda biror kim telefon qilib, so‘ramaydi. To‘g‘ri, kimga ham kerakman? Ammo miyangizdan o‘tayoqtanini tilingizga chiqarmasangiz ham bo‘lardi...

Keyinmi? Ikkimiz turib, amaliy mashg‘ulotlar olib borayotgan haligi harbiy xizmatchilar oldiga yo‘l oldik. Olim shoshmay, biroq ishonch bilan qadam tashlaydi. Chap tomondan borar ekanman, har zamonda unga ko‘z qirimni tashlab qo‘yaman. O‘rtabo‘y, bug‘doyrang, ozg‘indan kelgan, qo‘llari baquvvat. Tanasini ayamaydi shekilli, bo‘yin tomirlari bo‘rtib chiqqan...

– Hech qachon stvoldan o‘q chiqishini kutma, – dedi Olim meraganlik miltig‘idan nishonni ko‘zlayotgan harbiyga. – Nafasni olib, chiqarayotganingda tepkini bos! Ortiqcha shovqinga sira ham ahamiyat berma! Tanang miltiq bilan o‘zaro bog‘lansin. Bu o‘ta muhim. Hamisha esda saqla!

U menga ko‘z tashlab qo‘ydi. So‘ng “O‘t och!” komandasidan keyin yigitlar “qars-qurs” qilib o‘q uzdi. Shunda

uzoqdan ikkita kaklikning chiyillab tepalik yonboshiga qarab uchib ketganini ko‘rdim.

Bilasiz, odamlarni ko‘p ham maqtayvermayman. Kimningdir kamchiligini ko‘rsam, shartta yuziga aytaman. Yutug‘idan esa qalbim ravshan tortadi. Tabiatim shunaqa. Biroq Olim... u menga mukammaldek ko‘rindi. To‘g‘ri-da, manaman degan musobaqalarda o‘zini ko‘rsatib, raqibini dog‘da qoldirgan. Kuchli mergan. Takrorlanmas shijoat sohibi. Hatto rekordlar o‘rnatgan. Qo‘ysangiz-chi, aka! Nega sizni alday? Aldaganim yo‘q. Yaqinda “Mardlik” ordenini qo‘lga kiritdi. O‘zim guvoh, rasmlarini ko‘rdim. Munosib ko‘rilgan-da. Mendami? Urvoq ham yo‘q. Faqat mana shu qalamga egaman xolos. U ham ba‘zida yaxshi yozmayapti. To‘g‘ri aytasiz, charxlashim kerakka o‘xshadi.

Biroz chalg‘idim, a?

Olim katta-katta qadam tashlab oldimga keldi. Uning chehrasi sokin ko‘ldek mavjlanib turardi. Ko‘zlari ham porlayapti.

– Bugun egizak qizlarimning tug‘ilgan kuni, – dedi u samimiy jilmayib. – Mehmonlar qatorida sizni ham ko‘rsak, xursand bo‘lardik.

Uning ozg‘in yuzi, qop-qora ko‘zlarida baxt balqib turganini ko‘rdim.

Ikkimiz qo‘l berib xo‘shlashdik. Keyin Olim nari keta turib, joyida taqqa to‘xtadi. Keyin u shaxt bilan ortiga qaytdi.

– O‘qingiz nishonga bexato tegishini xohlaysizmi? – dedi u.

Toshqorayevning chehrasida bezovtalik, allaqanday og‘riq bor edi.

– Kim ham istamaydi buni? – dedim. Ammo uning nigohiga bardosh berolmasdim. Shuning uchun undan ko‘zlarimni olib qochdim.

– Unda buloqlaringizdan chiqayotgan suvni boshqasi bilan hech qachon taqqoslamang! – dedi Olim. Uning ovozi jahl bor edi. – Ta‘mini ham o‘zgasidan izlamang! O‘qqa keladigan bo‘lsak, keyingi safar albatta meraganlarning muhim sirini jon deb o‘rgataman. Qolganini uyda, dasturxon boshida gaplashamiz. Boring, kutamiz.

Yo‘q, bormadim. Borolmasdim ham. Keyinmi? Mushtlarimni mahkam qisib, bo‘zarib, loqayd tikilib turgan tog‘larga beparvo qaradim. Ichimda esa alam va og‘riq isyon ko‘tarardi. Ana shu dard bilan yotoq tomon qadam tashladim. Ortimda o‘sha quduq, uning tepasida tog‘ cho‘qqilari qora ko‘lankaga aylanib, ularning ortidagi osmon tobora olisga chekinaverdi.

Butun vujudim bezgak tutgandek titraydi. Xayolimni band qilgan o‘ylardan qutula olmasdim. Nimaga bo‘lardi? Qachonlardir quduqlarim “gapirishi” dan qattiq qo‘rqayotgandim. Qo‘ysangiz-chi, aka, kimni aldayapsiz? Har kimda o‘shandayin quduqlar bor! Ehtiyot bo‘ling, deyman-da! Mayli, yana ko‘rishamiz!

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
“Vatanparvar”

## Ilm-fan

XXI asr texnologiyalar asri bo'lib, bugungi kunda ta'lim sohasi ham shiddat bilan rivojlanib, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, harbiy ta'lim muassasasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonini takomillashtirish va harbiy xizmatchilarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

# REVERSIV TA'LIM

## TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Bu borada reversiv ta'lim (*inglizcha: flipped classroom*) texnologiyasi o'zining samaradorligi va yangi imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Reversiv ta'lim an'anaviy ta'lim modelidan tubdan farq qilib, o'quv jarayonini ikki asosiy bosqichga: kursant va tinglovchilarning mustaqil ta'lim jarayoni va auditoriyadagi faol mashg'ulotlariga ajratadi.

**REVERSIV TA'LIM** konsepsiyasi an'anaviy ta'lim modeliga nisbatan bir qator fundamental o'zgarishlarni taklif etadi. An'anaviy modelda o'qituvchi yangi mavzuni auditoriyada tushuntiradi, kursantlar esa topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradi. Reversiv ta'limda esa kursantlar yangi mavzu bilan mustaqil ravishda videodarslar, onlayn resurs va boshqa materiallar orqali tanishadi, auditoriyada esa mavzu yuzasidan savollar beradi, muhokamalarda ishtirok etadi va amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi. Bu konsepsiya ta'limning faollashtiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan va hamkorlikdagi ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Reversiv ta'lim kursantlarga bilim olish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni yechish va bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

**Harbiy ta'lim muassasasida reversiv ta'lim texnologiyalarini qo'llash bir qator afzalliklarni ta'minlaydi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.**

**Kursantlarning faolligi va mas'uliyatini oshirish.** Reversiv ta'lim kursantlarga bilim olish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Ular yangi mavzu bilan mustaqil tanishish orqali o'zlariga kerakli vaqtida va kerakli miqdorda materialni o'zlashtirishlari mumkin. Bu esa ularning mas'uliyatini va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

**Individuallashtirilgan yondashuvni ta'minlash.** Reversiv ta'lim har bir kursantning o'zlashtirish tezligi va qobiliyatiga moslashtirilgan ta'limni ta'minlaydi. Kursantlar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda materiallarni o'zlashtirib, auditoriyada savollar berib, tushunmovchiliklarni bartaraf etishlari mumkin. Bu esa o'qituvchiga har bir kursantga individual yondashish va ularning bilimlarini boyitish imkonini beradi.

**Auditoriyada faol mashg'ulotlarni tashkil etish.** Reversiv ta'lim an'anaviy ma'ruzalar o'rni auditoriyada muhokamalar, guruhli ishlar, amaliy mashqlar, simulyatsiya va boshqa faol ta'lim shakllarini qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu esa kursantlarning bilimlarini

mustahkamlashga, ularni amaliyotga tatbiq etishga, shuningdek hamkorlik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

**O'qituvchining rolini o'zgartirish.** Reversiv ta'limda o'qituvchi ma'ruzachi emas, balki fasilitator (*yordamchi*) va mentor rolini o'ynaydi. U kursantlarga individual yondashish orqali ularni to'g'ri yo'naltiradi, muammolarni yechishda ko'maklashadi va ularning rivojlanishini kuzatib boradi.

**Mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.** Reversiv ta'lim kursantlarda mustaqil o'rganish, ma'lumot qidirish, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa harbiy sohada, ayniqsa tez o'zgaruvchan sharoitlarda muhim ahamiyatga ega.

**Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish.** Reversiv ta'limda videodarslar, onlayn platformalar, virtual simulyatsiyalar, interaktiv mulyaj va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi. Bu esa ta'lim jarayonini qiziqarli, dinamik va samarali qiladi, shuningdek kursantlarning texnologik savodxonligini oshiradi.

**Ta'lim sifatini oshirish.** Reversiv ta'lim o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va kursantlarning o'quv faoliyatini baholashning samarali usullarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

**REVERSIV TA'LIM** texnologiyalarini harbiy ta'limning turli sohalarida muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. **Taktik va strategik tayyorgarlik:** kursantlar taktik va strategik mashqlarning nazariy asoslarini mustaqil o'rganib, auditoriyada esa real sharoitlarga yaqin simulyatsiyalar orqali amaliy mashqlarni bajarishlari mumkin. **Qurol-yarog' va texnikalarni o'rganish:** kursantlar qurol-yarog' va texnikalarning tuzilishi, ishlash prinsiplari va foydalanish qoidalarini videodars va interaktiv modullar orqali o'zlashtirib, auditoriyada esa ularni qismlarga ajratish, yig'ish va foydalanish bo'yicha amaliy mashqlar bajarishlari mumkin.

**Harbiy nizomlar va qonunchilik:** kursantlar harbiy nizomlar, qonun va boshqa normativ hujjatlarni mustaqil o'rganib, auditoriyada esa ularni muhokama qilib, huquqiy savodxonligini oshirishi mumkin. **Harbiy tibbiyot va birinchi yordam:** kursantlar tibbiy yordam ko'rsatish nazariyasini onlayn materiallar orqali o'zlashtirib, auditoriyada esa amaliy mashq va simulyatsiyalar orqali o'z ko'nikmalarini

mustahkamlashlari mumkin. **Harbiy topografiya va kartografiya:** kursantlar xaritalar va topografik belgilar bilan mustaqil tanishib, auditoriyada esa real sharoitlarda xaritadan foydalanish, yo'nalishni aniqlash va obyektlarni topish bo'yicha mashq qilishlari mumkin. **Xorijiy tillarni o'rganish:** kursantlar xorijiy tillarning grammatikasi va leksikasini onlayn resurslar orqali o'zlashtirib, auditoriyada esa til amaliyoti, muloqot va muhokamalar orqali o'z ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, reversiv ta'limni joriy etishda bir qator muammolar ham yuzaga kelishi mumkin:

**Internetga ulanish imkoniyatining cheklanganligi.** Barcha kursantlarda ham internetga ulanish imkoniyati mavjud emas. Bu muammoni yechish uchun, internetga ulanish imkoniyati bo'lmagan kursantlar uchun o'quv materiallarini boshqa shakllarda (*masalan, disklar, fleshkalar yoki bosma materiallar*) taqdim etish mumkin.

**Kursantlarning mustaqil ishlashga tayyor emasligi.** Ba'zi kursantlar mustaqil o'rganishga va o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashga tayyor bo'lmashligi mumkin. Bu muammoni yechish uchun o'qituvchilar kursantlarga mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va motivatsiya berishlari kerak.

**O'qituvchilarning reversiv ta'limga tayyor emasligi.** Barcha o'qituvchilar ham reversiv ta'lim metodikasini qo'llashga va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo'lmashligi mumkin. Bu muammoni yechish uchun o'qituvchilar uchun reversiv ta'lim metodikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etish, shuningdek o'qituvchilarni metodik qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilishi kerak.

**O'quv materiallarini tayyorlashdagi qiyinchiliklar.** Reversiv ta'lim uchun sifatli va samarali o'quv materiallarini tayyorlash vaqti va resurs talab qiladi. Bu muammoni yechish uchun o'quv materiallarini tayyorlash bo'yicha maxsus guruhlar tashkil etish, zamonaviy vositalardan foydalanish, shuningdek ochiq ta'lim resurslaridan keng foydalanish kerak.

**Baholash tizimining muvofiq kelmasligi.** Reversiv ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash tizimini qayta ko'rib chiqish zarur. Bu muammoni yechish uchun baholashning turli shakllarini (*masalan, muhokamalarda ishtirok etish, amaliy mashqlar, loyihalar, portfolio*) qo'llash,

shuningdek shakllantiruvchi baholashdan keng foydalanish zarur.

Reversiv ta'lim texnologiyalari harbiy ta'lim muassasalarida katta istiqbolga ega. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish va keng joriy etish uchun quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish ishlarini olib borish lozim.

**Sun'iy intellekt (SI) va moslashuvchan ta'lim.** SI texnologiyalaridan foydalanib, o'quv materiallarini individual ehtiyojlarga moslashtirish, kursantlarning yutuqlarini kuzatib borish va ta'lim jarayonini optimallashtirish.

**Virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR).** VR/AR texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim jarayoniga interaktivlik, qiziqarlilik va amaliy, shuningdek real sharoitlarga yaqin simulyatsiyalarni yaratish.

**Onlayn platformalar va o'quv resurslari.** Sifatli onlayn platformalar va o'quv resurslarini yaratish va ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek o'quv materiallarini almashish va hamkorlikni rivojlantirish.

**Tadqiqotlar va metodik qo'llab-quvvatlash.** Reversiv ta'limni harbiy ta'lim muassasasida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish, o'qituvchilarni metodik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish va eng yaxshi tajribalarni tarqatish.

**REVERSIV TA'LIM** texnologiyalari harbiy ta'lim muassasasida katta ahamiyat kasb etadi va o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va dinamik qilishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar kursantlarning faolligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash, auditoriyada faol mashg'ulotlarni tashkil etish, o'qituvchilarning rolini o'zgartirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Garchi reversiv ta'limni joriy etishda ayrim muammolar mavjud bo'lsa-da, ularning yechimini topish va ushbu texnologiyalarni harbiy ta'lim jarayoniga keng joriy etish zamon talabidir. Bu esa harbiy xizmatchilarni zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi va mamlakat mudofaasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**N. RASHIDOVA,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
Harbiy psixologiya va pedagogika  
kafedrasida katta o'qituvchisi,  
p.f.f.d. (PhD)



## Fikr



**Komandir O'zbekiston Respublikasi Umumharbiy nizomlari, quruqlikdagi qo'shinlar va Qurolli Kuchlarning boshqa qo'shin turlari jangovar nizomlarida belgilangan huquq va vakolatlarga ega. U bo'ysunuvchi barcha shaxsiy tarkibga yakka boshliqdir.**



# KOMANDIRLIK SIFATLARI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomiga ko'ra, yakkaboshchilik tamoyili Qurolli Kuchlarni boshqarish va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil milliy harbiy tariximizning ulkan tajribasi bilan o'z tasdig'ini topgan qo'shinlarni boshqarishni markazlashtirish tamoyillaridan kelib chiqadi. Amir Temur "Temur tuzuklari"da podsho saltanatni o'z tasarrufida saqlash uchun 12 ta tuzukka amal qilishi lozimligini ko'rsatib bergan. **Xususan, ularning birinchisida yozilishicha,** "Podshoh o'z so'ziga ega bo'lsin, ishini o'zi bilib qilsin, ya'ni sipoh va raiyat podshoning aytgan so'zini, qilgan ishini o'zi aytadi, o'zi qiladi, hech kimning bunga daxli yo'q, deb bilsin. Shunday bo'lgach, podshoh biror kimsani saltanat martabasiga sherik bo'lgudek qilib aytgan gapiga va ishiga ergashmasin. Garchi yaxshi so'zni hammadan ham eshitish zarur bo'lsa-da, lekin boshqalar so'zda va saltanat ishlarida podshohga sherik yoxud undan ustun bo'lmasliklari shart".

Komandir harbiy qismdagi ishlarning asl holatidan doimiy xabardor bo'lish asosida jangovar shaylikni oshirish, barcha sa'y-harakatlarni shaxsiy tarkib oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'naltirish uchun o'z faoliyatida bo'ysunuvchilarni o'qitish va tarbiyalashda qo'l keladigan barcha yangi jihatlarni ko'ra bilishi, o'rganishi va hayotga tatbiq etishi kerak.

Lavozim bo'yicha xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, tinchlik va urush davrida qo'shinlarni mohirlik bilan boshqarish, shaxsiy tarkib orasida

obro', katta komandirlar orasida esa hurmat-e'tibor qozonish uchun muayyan fazilatlar – axloqiy-ruhiy, harbiy-professional (*kasbiy*) hamda shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Komandirlik sifatlari o'zaro uzviy aloqadorlikda, bir-birini to'ldirishda bo'lib, doimiy ravishda takomillashib boradi.

**AXLOQIY-RUHIY SIFATLAR** ofitserning boy madaniyatimiz, tarixiy qadriyatlarimiz va an'analarimizga asoslangan keng dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy darajasi va intellektual salohiyatini tavsiflaydi. Ofitserning ongida xalqqa va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuksak darajadagi sodiqlik tuyg'usi, shuningdek muqaddas burchga teng Vatan himoyasi hissi, milliy armiyamiz uchun g'urur, davlat xavfsizligi uchun javobgarlik mavjud bo'lishi juda muhimdir. Ushbu sifatlar komandirga shaxslarni mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarash, mustahkam ishonch va irodaga ega, ma'naviy jihatdan boy va sodiq, ajdodlarimizning bebaho merosidan andaza olib yashaydigan, har tomonlama barkamol Vatan himoyachilari etib tarbiyalash imkonini beradi.

Komandirning ixtiyorida juda ko'p inson va ulkan moddiy boyliklar bo'lib, ularni mohirlik bilan boshqarish va idora etmoq darkor. Bularning barchasi komandirdan chuqur bilim, mustahkam ko'nikma va malakani talab etadi.

**KOMANDIRNING HARBIY-KASBIY SIFATLARI** yoki professional tayyorgarligi qo'shinlarni boshqarish bo'yicha amaliy faoliyatni olib borish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va

malakalar jamuljamligida namoyon bo'ladi. Bu tinchlik davrida unga harbiy qismning yuqori jangovar shayligini saqlash, bo'linmalar jangovar tayyorgarligi sifatini uzluksiz oshirib borish, jangovar tayyorgarlikni barcha bo'linmalarda shaxsiy tarkibni eng yuqori qamrov bilan o'tkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, mashg'ulot va mashqlar past uslubiy saviyada o'tkazilgan hollarda talabchanlik bilan munosabat bildirish, taktik, o't ochish va maxsus tayyorgarlikning barcha turlarini takomillashtirish, bo'linmalarning dala ko'nikmalari yuklamalarga dosh berish va jangovar harakatlarni uzoq vaqt olib borish qobiliyatini tizimli ravishda oshirib borish, bo'ysunuvchi ofitserlar tayyorgarligini takomillashtirish, ularning ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Komandir qurol-yarog' va jangovar texnikaning jangovar xususiyat va imkoniyatlarini, ulardan foydalanish shartlari va jangovar qo'llash usullarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Chunki harbiy tuzilma ixtiyoridagi qurol-yarog' va texnika uning jangovar qudrati asosini tashkil etadi. Komandir – bo'ysunuvchi bo'linmalar jangi va jangovar tayyorgarligining tashkilotchisi. Shu bois u nafaqat chuqur operativ-taktik, balki yetarli darajadagi texnik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak.

Komandir boshqaruvning zamonaviy vositalarini qo'llay olishi, bu vositalarning umumiy tuzilishi hamda asosiy qoidalarini bilishi, eng asosiysi esa boshqaruvga oid vazifalarni hal etishda uning imkoniyatlaridan foydalana



olishi kerak. Komandirning juda muhim professional sifati uning tashkilotchilik qobiliyatidir, ya'ni har qanday tadbirni eng qisqa muddatda, yuqori darajadagi samara bilan inson resurslari va moddiy vositalarni eng kam miqdorlarda jalb etib tashkillashtirish qobiliyatidir.

**KOMANDIRNING TASHKILOTCHILIK FAOLIYATI** bo'ysunuvchi ofitserlar, serjant va askarlar bilan ishlashida namoyon bo'ladi. Bu har qanday mehnat kabi asabiy va jismoniy quvvat sarflashni talab etib, bo'ysunuvchi bo'linmalar bilan hamkorlik, hamjihatlikda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu faoliyat ijtimoiy-siyosiy xususiyatga xos bo'lib, aniq maqsadga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. Bunda komandir ijrochilar uni tushunayotgani, to'g'ri (*maqsadga muvofiq*) harakat qilayotganini doimiy ravishda bilishi shart.

Har bir ofitserning tashkilotchilik qobiliyatini uning tashabbuskorligi va ijtimoiy (*ya'ni bo'linmaga xos*) shijoati belgilab beradi, ularni esa faollik, ijodiy yondashuv, g'oyalarni ilgari sura olish, xizmat burchini bajarishda uddaburonlik ko'rsatish deb tushunish kerak. Bulardan tashqari, hissiy ta'sir, irodaviy muhokama, shaxsiy namuna, hisobli (*ongli*) tavakkal qila olish qobiliyati vositasida insonlarni faollashtirish, safarbar eta olish muhimdir.

**M. IBRAGIMOV,**  
Qurolli Kuchlar  
akademiyasi dotsenti

## Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda



## QANDAY MUTAXASSISLIKLAR O'RGATILMOQDA?

Hozirgi kunda hududiy mudofaa ishlari boshqarmalari huzurida chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazlari faoliyat yuritayotganidan xabaringiz bor. Unda o'qish tartib-taomillari, o'rgatilayotgan mutaxassisliklar haqida Toshkent viloyati misolida ma'lumot beramiz.



Prezidentimizning 2018-yil 12-dekabrda "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2019-yil 1-apreldan O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiyo'l avtomobil maktabi o'rnida **Toshkent viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi Chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazi** tashkil etilgan. Mazkur qarorga ko'ra, 2019-yildan boshlab chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash ishlari O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotidan Mudofaa vazirligiga o'tkazildi.

– Toshkent harbiy okrugi va Toshkent viloyati hokimligi hamkorligida markazimizda ta'lim olayotgan yoshlar uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv moddiy-texnika bazasini yaratish va mavjud infratuzilmani takomillashtirish ishlari olib borildi, – deydi markaz boshlig'i podpolkovnik Aziz Rahmatov. – Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrda qaroriga ko'ra, markazda tahsil olayotgan chaqiriluvchilar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Toshkent viloyati hokimligi Outsorsarlarni tanlash komissiyasining bayonnomasiga asosan, outsorsing tizimi asosida bepul o'qatlantiriladi. Muassasamizning 100 o'ringa mo'ljallangan oshxonasida sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy e'tibor beriladi. Shuningdek, chaqiriluvchilar uchun kiyim-kechak (harbiy ust-bosh) ta'minoti tashkil

etilgan. Markazda Qurolli Kuchlar safiga muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun yuboriluvchi chaqiriluvchilar quyidagi 7 ta mutaxassislik bo'yicha tayyorlanmoqda:

1. "C" toifali haydovchi – elektriklar.
2. "BC" toifali haydovchilar.
3. Telefonist.
4. Radiotelefonist.
5. Xizmat iti yetaklovchilari.
6. Chavandoz.
7. O'qchi-oshpaz.

– O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2024-yil 15-noyabrda "2025/2026-o'quv yilida mudofaa ishlari boshqarmalari huzuridagi markazlarda Qurolli Kuchlar uchun harbiy-texnik mutaxassisliklarni tayyorlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida muassasamizda jami 505 nafar chaqiriluvchini 7 turdagi mutaxassislik bo'yicha 3 bosqichda o'qitish rejalashtirilgan, – deydi markazning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik fani o'qituvchisi Bahodir Hasanov. – Shundan 1-bosqichda joriy yilning 15-martidan 30-iyunigacha 139 nafar, 2-bosqichda 183 nafar va 3-bosqichda 183 nafar chaqiriluvchini qabul qilish rejalashtirilgan. Bu yerda tahsil oluvchilar ro'yxati tuman mudofaa ishlari bo'limi tomonidan shakllantiriladi. O'quv mashg'ulotlarni sifatli olib borishda 52 nafardan iborat markaz jamoasining alohida hissasi bor. O'qish davomiyligi 3,5 oyni tashkil etuvchi mashg'ulotlar yetuk mutaxassislar tomonidan belgilangan rejaga asosan, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilmoqda.

## ZAMONAVIY SHAROITLAR ASOSIDA

Suhbatdoshimiz Bahodir Hasanovning ta'kidlashicha,

ushbu markazda Qurolli Kuchlar mutaxassislarini tayyorlash uchun 14 ta o'quv sinfi mavjud. O'quv xonalari zamonaviy jihozlar, kompyuter va multimediyaviy proyektorlar bilan ta'minlangan. Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi, avtomobil tuzilishi va unga texnik xizmat ko'rsatish, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, harbiy tayyorgarlik, informatika asoslari fani o'quv xonalari shular jumlasidan. Qolaversa, aloqachilar, oshpazlar, chavandozlar tayyorlash, agregatlarda amaliy mashg'ulot o'tish, xizmat itlari yetaklovchilari o'quv xonalari markaz tinglovchilarining harbiy-texnika kasblarini puxta o'rganishlarida ayni muddao bo'lmoqda. Bundan tashqari, 4 ta amaliy mashg'ulotlar xonasi, o'quv-mashg'ulot maydoni (avtodrom), saf maydoni, zamonaviy inventarlar bilan jihozlangan sport zali, sport maydoni, minifutbol maydoni, o'quv va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlangan kutubxona, chaqiriluvchilarning madaniy hordiq chiqarishi uchun dam olish maskani mavjud.

"C" toifali haydovchi-elektrik va "BC" toifali haydovchi mutaxassisligi bo'yicha chaqiriluvchilar mashg'ulotlarni avtomobillarni amaliy boshqarishni o'rgatish maydonida olib boradi. Bo'lajak chavandozlarning darslari esa "Markaziy ippodrom" aksiyadorlik jamiyati hududida o'tkaziladi. Xizmat iti yetaklovchilari mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarlikdan o'tayotgan chaqiriluvchilar Yangiyo'l tumanidagi harbiy qismda bilimlarini boyitadi. Telefonistika va radiotelefonistika bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislar markazdagi radioaloqa vositalaridan unumli foydalangan holda bilim va ko'nikmalarini oshirib boradi. O'qchi-oshpaz mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotgan chaqiriluvchilarimiz uchun amaliy mashg'ulotlar markazdagi poligon va dala oshxonasida tashkil etiladi.

Markazda chaqiriluvchilar uchun ajratilgan 200 o'rinni yotoqxonalar barcha zarur jihozlar bilan ta'minlangan. O'quv binosining har bir qavatida yuvinish joylari mavjud. Ushbu markazda chaqiriluvchilar hamda uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "Aviamodel", "Yosh texniklar", "Boks", "Futbol", "Penchak silat", "Qo'ljangi" to'garaklari muntazam ravishda faoliyat olib boryapti. Toshkent harbiy okrugiga qarashli harbiy qismlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda qiziqarli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

## NOMZDLARNI SARALASH TALABLARI

Markazga o'qishga kirish imtihonlarini o'tkazish va tahsil oluvchilar ro'yxatini shakllantirish tuman mudofaa ishlari bo'limlari zimmasiga yuklatilgan. O'qish istagidagi nomzodlar tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i nomiga ariza va kerakli hujjatlarni topshirgach, jismoniy tayyorgarlik, tibbiy ko'rik va suhbat asosida saralanadi. Talabgorlar jismonan va ma'naviy jihatdan o'rganilgach, mudofaa ishlari bo'limi tomonidan markazga o'qish uchun yuboriladi. Markaz bitiruvchilariga o'qigan mutaxassisligi bo'yicha ma'lumotnoma beriladi.

Xulosa qilib aytganda, mudofaa ishlari boshqarmalari huzuridagi Chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazida ta'lim olgan yoshlar kelgusida Qurolli Kuchlar safida o'z yigitlik burchini a'lo darajada o'tab, Vatanimiz ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shuvchi insonlar bo'lib yetishishi shubhasiz.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**

Bir o'q bilan ikki nishon



Sherzod SHARIPOV

# ENG MUHIMI – YURTGA MUHABBAT!

**M**ayor Xurshid Ochiyev Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtini (hozirgi Qurolli Kuchlar akademiyasi) tamomlagan. Komandirning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari hamda taktik qo'mondonlik fakultetini tugatib, xizmatni boshlaganiga ham o'n besh yil bo'lib qoldi. Unchalik ham katta fursat emas. Ammo kasb sirasrorlarini mukammal egallash va tajriba to'plash hamda bu tajribalarini yoshlar bilan o'rtoqlashish uchun yetarli fursat.

Ba'zan ayrim insonlar haqida maqolalar tayyorlanganida, "maqolani o'qib, nahotki, shu menman, deb o'zimga ishonolmay qoldim", degan hazilomuz e'tiroflarni eshitganmiz. Demak, bo'rttirib yuborgan joylarimiz ham bo'lsa kerakda. Shuning uchun, keling, bizdan emas, ofitserning o'zidan tinglang.

\* \* \*

– Ofitserlik bolalik orzum bo'lmagan. Bu kasbga rahmatli akam ko'proq munosib edi. Umri qisqa ekan... Buxoro viloyatining Romitan tumanida tug'ilib o'sganman. Tumandagi fizika-matematikaga ixtisoslashtirilgan litseyda o'qidim. Aynan shu yerda o'qib yurgan kezlirim harbiy xizmat haqida o'ylay boshladim. Chunki tengdoshlarimning hammasi kelajakda kim bo'lishlari haqida aniq maqsadga ega edi. Harbiy yo'nalishda o'qishni davom ettirishni otam maslahat berdi. O'zimga ham ma'qul

keldi. Oson bo'lmadi. Otam, o'qituvchi xolam meni ko'p qo'llab-quvvatladi, rag'batlantirdi. Ulardan minnatdorman.

Shu kunga qadar bir nechta jamoada xizmat qildim. Harbiy xizmat tashqaridan qaraganda romantikaga boy, yorqin ranglarda ko'rinadi. Uning ortida turgan mashaqqatli mehnat ko'p-da ham ko'rinavermaydi. Yoshlar bilan uchrashuvlarda sharaflilik kasbning ana shu tomonlari haqida ham batafsil tushuntiraman. Chunki yurt himoyasi hoy-u havas emas, yurak amri! Eng muhimi – yurtga muhabbat! Ana shu muhabbat senga qanot bo'ladi.

"Agar kasbingni sevsang, qiyinchiliklar pisand emas", – ustozlarimning har biridan eshitganim bu gapga o'z hayotim misolida amin bo'ldim. Bu haqda bejiz gapirmayapman. Harbiy xizmatning dastlabki yillarida kasbidan sharaf topganlar bilan birgalikda qiyinchiliklarga taslim bo'lganlarni ham ko'rdim.

Harbiy hayot ham rang-barang, qiziqarli, jo'shqin kechadi. Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari o'rtasida turli tanlovlar, ko'ngilochar, ma'rifiy tadbirlar uyushtiriladi. 2024-yil yakunida Mudofaa vazirligi miqyosida bo'lib

o'tgan "Eng yaxshi yosh kitobxon" tanlovida jamoamizdan kichik serjant Nurali Mo'minovning g'olib bo'lgani barchamizni sevintirdi. Bu kabi yutuqlarning barchasi haqida gapirish nokamtarlik bo'ladi.

Xizmatdan bo'sh vaqtlarimni oilam bilan o'tkazishga intilaman. O'zimni omadli inson deb bilaman. Harbiy xizmatning o'ziga yarasha mas'uliyati bor, har doim ham farzandlaring yonida bo'lish qiyin. Bola tarbiyasi esa juda nozik masala. Rafiqamning pedagog ekani oilam – farzandlarimning baxti, mening omadim. Uch farzandimiz bor. Rafiqam oila tashvishlaridan ortib, ilmiy ish qilishga ham vaqt topdi. Falsafa fanlari doktori, institutda dars beryapti. Oilasidan ko'ngli to'q insonning har ishida unum, baraka bo'ladi. Men ham ana shunday insonlarning biri.

Oilada ikki farzand ulg'aydik. Opam muallima. O'zimni ota-onam oldida qarzdor his qilaman. Ular bizni dunyoga keltirdi, o'zlari yemay yedirib, ichirib katta qildi. Orzularimizni o'zlariniki bilib, bizni ruhlantirdi. Hayotda o'z o'rnimizni topishimiz uchun qo'llab-quvvatladi. Rosti, ular mendan hech narsa talab qilmaydi. Bu dunyoda borligim, oilamning tinchligi, Vatan himoyasida ekanim ularni quvontiradi. Ba'zan, yana bir ukam ham bo'lganida edi, deb o'ylab qolaman. Buning sabablari bor. Kovid dunyoni qariyb falaj holga solgan kunlar hammaning yodida bo'lsa kerak. O'sha paytlari ota-onam ham qattiq og'rib qoldi... Ikkovlari uchun ham og'ir paytlarda men ularning yonida bo'la olmadim. Bundan o'kinaman, ular oldidagi farzandlik burchimni o'tay olmadim, kerak paytda yonlarida bo'lolmadim, degan armonga o'xshash o'ylardan bezovta bo'laman. Ular kasallikni yengdi, sog' bo'lsinlar baxtimizga. Ota-onam yonida ko'proq bo'ladigan vaqt ham kelar, o'shanda ularning mensiz o'tgan kunlari hissasini chiqarishga harakat qilaman.

Mana, sharaflilik kasb egasiman. Bundan g'urur tuyaman. Ustoz ofitserlar o'gitini oldim. Bugun mendan ham maslahat so'raydilar. O'zimni ustoz darajasida deb bilmayman. Shunchaki, bugungi yosh ofitserlar oldida turgan sinovlarga o'z vaqtida men ham duch kelganman. Menga ham harbiy hayotning past-balandini minnatsiz tushuntirgan, qimmatli maslahatlarini ayamagan insonlar bo'ldi. Yosh safdoshlarimga ana shu ezgu an'anadan kelib chiqqan holda ko'maklashib kelyapman.

Dono odamlarning aytishiga qaraganda, eng yaxshi va eng samarali sarmoya farzandlarning ilm olishiga qaratilgan ekan. Otam oddiy traktorchi, onam dalada ishladi. Oddiygina insonlar, ammo farzandlari bilan bog'liq orzulari yuksak bo'lgan. Bugun ularning ishonchlarini qay darajada oqladim, bilmayman. Menga to'g'ri yo'l ko'rsatib, hamisha qo'llab kelgan otamdan minnatdorman, mehr-shafqatidan o'sganim – fidokor onam oldida qarzdorman. Hayotim mazmuniga aylangan kasbimda erishgan har neki yutug'imda ularning ham hissaları bor. Qanday kasb egasi bo'lmasin, otalar farzandlarga ibrat ekan.

Ofitserning shaxsiy namunasi, degan tushuncha bor. Buning qamrovi keng. Qaysi lavozimda xizmat qilsangiz ham, eng yuksak unvon sohibi bo'lsangiz ham, so'zingiz va amalingiz bir bo'lmasa, hammasi bekor ekan. So'z va amal birligi ofitserga sharaf keltiradi. Bu mening hayotiy tamoyilim.

\* \* \*

Mana, aziz o'quvchi, bir insonning o'zi haqida aytganlarini o'qingiz. So'z va amal birligini hayotining tamoyili deb bilgan mardlar bor bo'lsin.

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"



# KAMERA BILAN

(Xudoybergan Devonov qissasi)

**Xudoybergan Devonov ilk marta rasmga oladigan qutini Xivada – Oqmasjid qishlog'i atrofida yashovchi nemis mennonitlari jamoasi vakili Vilgelm Penner qo'lida ko'rgan edi. Xalq uni Panorbuva deb atardi. Afsuski, inson suratini yaratish, jonlantirish "gunohi kabir" hisoblangan zamonda bu ixtiroga yaqinlashish o'zini kamida mahkamada – qozi va mirshab qistovida ko'rish bilan barobar edi.**

Keksayib borayotgan Panorbuvaning shu sababdan "urug'likka" ham shogirdi yo'q edi. Xudoybergan va suratchi cholning uyi orasi bir necha chaqirim bo'lsa-da, ammo bo'lg'usi fotograf va fotoapparat orasi anchayin olis edi.

**BOLALIK.** Qay bir kuni bozordagi savdogar 9-10 yoshli Xudoyberganni arab, fors, turk, rus millatiga mansub kishilar bilan suhbatlashtirdi. Bola to'rt tilda ham biyron so'zlar edi. Olomon uning qobiliyatidan hayratga tushar, "Buni qara-ya, shu jussada shuncha qobiliyat!" degan pichirlar bisyor edi.

Yana bir voqea musiqa asboblari sotiladigan rastada sodir bo'ldi. O'ndan ortiq musiqa asbobini navbatma-navbat chalib ko'rsatayotgan o'spiringa qarab: "Bu bolaga Xudo yuqtirgan ekan", deb shivirlaydi odamlar...

U Oqmasjid ko'chalarida yurar ekan, Panorbuvaning fotoapparat uskunalarini tozalayotganini ko'rib qoladi. Sekin yaqinlashib, unga nemis tilida murojaat qiladi:

– Odamlarning gapi rostmi? Sehr bilan odamlarni xuddi o'ziday chiza olar ekansiz-a?

**Panorbuva uning nemis tilida gapirayotganidan biroq hayratlanadi.**

– Bu sehr emas, ilm-fan kashfiyoti... Nemis tilini bilasanmi?  
– Yaqinda o'rgandim. Mengayam shu ishingizni o'rgata olasizmi?

Panorbuva bolaning niyati jiddiyligini sezadi:

– Shu kungacha hech kim mendan buni iltimos qilmagandi. "Gunohga botish"dan qo'rqmaysanmi? Avval otangdan so'rab kel, tag'in kaltak yeb yurma...

– Ularga tushuntiraman.

– Ko'rib turibsan, yosh emasman. Qachondir shu hujrada o'ligimni topishadi. O'lish-ku, mayli... ammo mana bu apparatlarni, bu yerdagi ilmni (*u ko'rsatkich barmog'ini boshiga o'qtaladi*) qarovsiz tashlab ketishdan ko'rqaman. Kelaver, eshigim sen uchun doim ochiq...

Kadrda bo'lajak ustoz-shogird qo'l siqishadi. Shundan keyin Xudoybergan uchun Panorbuvaning kulbasi ikkinchi uyga aylanadi.

**MULOHAZA.** Bu aql bilan oddiy rasmlar ishlab bo'lmasdi. Masalan, otlar tasvirini olaylik. Mustamlakachilarning qing'ir rejaları sabab xalq otdan uzoqlashtirildi. Ot bilan bog'liq neki bo'lsa, barisi bosim ostida qoldi. Yaqin besh yillikda xalqning ko'p yillik yilqichilik tajribasi, ilmi, qadimiy jang mahorati so'ndirilishi kerak edi.

**Xivalik chorvador qizil askarlarga qarata hayqirmoqda:**

– Biz otlar bilan yonma-yon yashaganmiz. Otam 90 dayam ot minar edi. Men otdaman, ularim ot ustida. Buni taqiqlashga haqqing yo'q!..

Qizil askarlar baribir sayisxonadan otlarni olib ketmoqda. Chorvadorning bolalari tulpor bo'yniga yopishib olgan. O'rtada qizillar bilan ur-yiqit boshlangan...

Shu voqeadan sal avval yosh Xudoybergan ko'ngli sezganday qorabayir, ahaltaka, yovmit otlarining suratlarini olgan edi.

Chindan ham Xiva hukmdori saroyi otxonasida qorabayir, yovmit, ahaltaka zotiga mansub 15 mingdan 45 minggacha jangchi ot saqlanar edi. Qizillar barini yo'q qildi. Ulardan shu xotiralar qoldi.

Yana Turkistonga birinchi traktorning olib kelinishi, Xiva xoni Asfandiyorxonning foytunda kelishi tasviri...

**U o'z ishining chinakam hujjatli ustasi edi. Ushbular bitilgan kaftdek yorliq ham buni tasdiqlaydi.**

– *Shahodatnoma. Ushbuni ko'rsatuvchi o'rtoq Xudoybergan Devonov haqiqatdan O'zbek Goskinoning Xorazm shu'basida osori atiqalar va Xorazm okrugida har xil manzaralarni kartinaga oluvchi fotorassom – "operator" vazifasida turadir. Muhr. Imzo...*

**XON SAROYI. 1890-YILLAR.**

Qizil askarlardan biri saroyi hovlisida Nurmuhammad nozirning bilagidan ushlab, chetga tortadi. Mulozim ruschalab deydi:

– Xudoybergan sizning o'g'lingizmi?

– Ha, nimaydi, – hayratlanib tikiladi nozir.

– U Oqmasjidda yashovchi Penner degan nemisning uyiga serqatnov bo'lib qoldi. Bundan qozining ham xabari bor. Obro'li odamsiz, keyin bizdan gina qilib yurmang deymanda.

Nurmuhammad nozir vaziyatni darrov fahmladi. "Panorbuvanikiga borib yuribdimi hali..."

Ertasi kuni ota o'g'lining izidan ergashdi. Panorbuva Xudoyberganni ichkari xonaga boshlab, unga surat qanday paydo bo'lish qonuniyatlari haqida dars o'tdi.

Nurmuhammad nozir shaxt bilan eshikni ochib, ichkari kirdi. Qorong'i

xona birdan yorishdi. Ustoz-shogird qo'lga tushganday bir lahza qotib qoldi.

– Davom etavering, – dedi nozir. O'zi esa burchakdagi kursiga o'tirib, jarayonni kuzatadi. Panorbuva "Zot" fotoapparati qarshisiga Xudoyberganni o'tkazar ekan, unga topshiriq beradi:

– Endi o'rganganlaringni shoshmasdan bajar. Bizni suratga ol.

**Nurmuhammad nozir gap qo'shdi:**

– Ko'pdan beri kelyaptimi, Panorbuva?

**Panorbuva:**

– Ikki oycha bo'ldi. O'ta qobiliyatli bola. Yo'q demasangiz, shu hunarni oxirigacha o'rgatsam. Biror shogird chiqarmadim. Buyog'i qarichilik...

Xudoybergan otasiga qattiq yolvorish bilan qaradi. Nozir ma'noli sukut bilan tashqariladi. Buni rozilik alomati deb tushunadilar.

Bir kuni Panorbuva bisotidagi hamma fotoapparat va anjomlarini yosh shogirdiga sovg'a qiladi.

– Men ularni haqiqiy egasiga berayotganimdan xursandman. Buyog'iga o'zing tarix yarat. Xudoybergan iste'dodingni ezgulik uchun sarfla. Senga oson bo'lmaydi. Turkistonni dunyoga yoyish sening yelkangga tushdi.

**MULLA OXUND**

**MAHKAMASI.** Nurmuhammad Devonovni Xiva qozikaloni Salim Oxun so'roq qilmoqda.

**Qozikalon Salim Oxun:**

– Taqsim, siz bir ziyoli kishisiz. O'g'lingiz ko'cha-ko'yda surat solib yurganmish. Buning shariatda qanday gunoh ekanini yaxshi bilasiz. Erta-indin bu gap xonning qulog'iga yetsa...

**Nurmuhammad devon:**

– Muhtaram qozi, sizday adolat peshvosi yangi kashflar Turkiston eli uchun ziyon emas, manfaatli bo'lishini yaxshi anglaydi, deb o'ylayman. Islohotlar Turkistonga suv va havoday zarur. Bu yurishda Ovro'paga yetmog'imiz asrlarga cho'zilaverar. Yaqin besh yil ichida xonlikda ovro'pacha shifoxona, birinchi paxta tozalash zavodi, pochta, telegraf va zamonaviy xastaxonalar kirib keldi. Bunga ham boshda shariat qarshi edi-ku...

**Qozikalon Salim Oxun:**

– Shunaqa deng. Oqmasjiddagi ko'chmanchi nemislarning xufiyona g'oyalari nahot sizni cho'chitmasa...



# YOZILGAN TARIX

## Nurmuhammad devon:

– Meni g'oyasizlik, tobora razolatga botayotganimiz ko'proq cho'chitadi...

## Qozikaloni Salim Oxun:

– O'sha apparatning ichida biror badgumonlik yashiring'on bo'lmasin tag'in... Kimsan Nurmuhammad nozirning o'g'li shariatga nomaqbul ishlar bilan shug'ullanib yurganmush, degan xabar sizga obro'mi? Shoyadki, bunday nojo'ya ishlar qilinadurg'on xonaga farishtalar ham kirmas...

## Nurmuhammad nozirning biroz jahli chiqadi.

– Muhtaram qozi, Yaratgan taqdirimga birgina o'g'il bitmish. U bir boshqa olam, ilmga qiziqqon. Agar yo'liga shariatni pesh qilaversam, uzog'i bilan mulla bo'ladi-da.

## Qozikaloni Salim Oxun:

– Mullalik yomonmi, taqsim?

## Nurmuhammad devon:

– Keling, bir to'xtamg'a kelsak. Bilasiz, hovlimiz keng. Xudoybergan bir kichik xonada surat bilan ishlayversa. O'sha xonaga farishtaning kirgisi kelmasa, ana, yana to'qqizta xona bor... Buyog'i bir gap bo'lar...

## Qozikaloni Salim Oxun:

– Men ogohlantirdim, nozir. Xohishingiz...

## 1895-YIL. XON SAROYI.

Qizillar Nurmuhammad nozir va Xudoyberganni Muhammad Rahimxon II Feruz huzuriga olib boradi. Yangilik tarafdori, qiziquvchan xon Xudoyberganni yoniga chorlaydi. "Hozir ikkisiyam zindonga ketadi" deb o'ylab o'tirgan mulozimlarning o'y-xayollari birdan tarqab ketadi. Xon Xudoybergandan o'zini suratga olib qo'yishini so'raydi. Yosh yigitchaning mahoratini ko'rgan xon uni bag'riga bosadi. Shu-shu, shariat peshvolari ta'qibi oqsab qoladi...

Xudoybergan Devonov bundan keyin xon zarbxonasida muhrkon usta bo'lib ishlaydi. 1907-yil oxirlarida Xiva xonining o'ng qo'l vaziri Islom Xo'ja boshliq bir guruh kishilar bilan Peterburg safariga o'tlanadi. U yerdan Xorazmga "Pate" kinoapparati, grammofon va fotoapparatlar olib qaytadi.

## Bu haqda u o'z tarjimai holida shunday yozadi:

"1908-yilda Maskovga borib, Pyotr Yahum degan boydan kinoapparat sotib oldim. Bir oy uning xususiy laboratoriyasida pul to'lab o'rgandim.

*Kino o'ynataturgan apparat va materiallarni sotib olib, Xivaga keltirdim".*

Shundan so'ng u "Ishchi ayollar", "Sho'rko'l" kabi qator kinosyujetlar, "Chig'ir", "Kustar usulda bo'z to'qish", "Xivada xalq shodiyonalari", "Suv yo'llarini tozalash", "Paxta terimi", "Birinchi traktor" kabi ayrim hujjatli lavhalarni yaratadi.

Urganch, Xiva, Toshsoqa, Toshhovuz, Xo'jayli, To'rtko'l singari shahar va tumanlarni kezgan usta-operator diqqatga sazovor joylarni, aholining dehqonchilik ishlarini tasmlarda muhrlaydi. Xiva shahrining me'moriy obidalari, xalq sayillari, dorbozlar va masxarabozlarning tomoshalari, xonlikda yashagan o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq millatiga mansub kishilarning madaniy va maishiy-etnografik hayoti manzaralari uning ijodida bosh mavzularga aylanadi.

## Xudoybergan Devonov tergov materialida otasiga qarashli yersuv to'g'risida so'zlab, shunday deydi:

*"Mening o'zim dastlab baqqollik do'konini ochib, savdo bilan shug'ullandim, ammo savdo bilan o'ralashib qolmay, soatsozlik qilib, hunarmandlik bilan mashg'ul bo'ldim. Otam 1918-yili vafot etdi. Men otamdan qolgan yerni dehqonlarga ijaraga berib, ulardan daromad olib turdim. 1927-yilda esa barcha yer-suv-u mulkimni sho'ro hokimiyati foydasiga topshirdim".*

## JADIDLAR BILAN YONMA-YON...

58 yoshli fotosuratchi 1937-yilda hibsga olinib, Yangiyo'ldagi siyosiy mahkumlar lageriga yuboriladi. Unga NKVD tomonidan aksilinqilobchi tashkilot rahbarlari Fayzulla Xo'jayev va Davlat Raziyevning topshirig'i asosida Angliya razvedkasi foydasiga josuslik qilgani, Xorazmda bosmachilik harakatini tashkil qilgani, bosmachilar yetakchisi Junaidxon bilan shaxsan aloqada bo'lgani kabi ayblar qo'yiladi.

1938-yil 5-sentabrda, atigi 20 daqiqa davom etgan sudda Xudoybergan Devonov O'zbekiston SSRni SSSRdan ajratib olib, burjua davlatini barpo etish maqsadini qo'ygan aksilinqilobiy, millatchilik, qo'zg'olonchilik, terrorchilik va diversiya-zararkunandachilik tashkiloti bilan aloqa o'rnatganlikda, tumanmatuman kezib, ingliz razvedkasi uchun josuslik ma'lumotlarini to'plaganlikda

aybdor deb topilib, oliy jazo – o'limga mahkum qilinadi. Mol-mulki esa davlat foydasiga musodara qilinadi. Hukm o'sha kuniyoq ijro etiladi.

Buni qarangi, bu mudhish voqeadan bir oy o'tib, Cho'lpon va Fitrat ham ayni o'sha yerda otib tashlangan edi.

## USTOZ-SHOGIRDLIK

Xudoybergan Devonov va Vilgelm Penner munosabatlari kamdan kam uchraydigan chin ustoz-shogirdlik maqomidadir. Vilgelm Penner o'z hunarini – tirikchilik manbalaridan birini yashirishga urinmaydigan, raqobat orttirishdan cho'chimaydigan mard va oliyjanob inson edi. U Xudoyberganda foto san'atiga qiziqish uyg'otib, unga suratga olish va oynaga tushirilgan tasvirni qorong'i xonada fotodorilar yordamida yuzaga chiqarishning murakkab jarayonini qunt bilan o'rgatdi.

Hatto unga "Zot" rusumli fotoapparatini sovg'a qildi. Xudoybergan uning daldasi bilan shu fotoapparatda surat olishga quvona-quvona kirishdi.

Shu boisdan Xudoyberganning shaxsiy hayot pozitsiyasi, qiyinchiliklar va tashvishlar bilan yuzma-yuz kelishi, bir vaqtda Pennerning ustoz sifatidagi saboqlari va maslahatlarining uning qalbida qanday chuqur iz qoldirgani muhim ahamiyat kasb etadi. Penner bilan bo'lgan ustoz-shogird munosabati orqali u nafaqat o'z san'atini, balki butun xalqning tarixi va madaniy merosini muhim tarixiy hikoyaga aylantira oldi.

Xullas, **Xudoybergan Devonov** o'z zamonasidan 100 yil ildamlab ketgan shaxs edi. Birinchi o'zbek fotografi, kinosanoat asoschisi obyektivi orqali Turkiston atalmish qadim o'lka nafas oldi, jonlandi. Uning asarlarida nafaqat insonlar, balki butun bir davr muhiti aks etdi. Ustozi unga yevropacha texnika va vizual san'at usullarini o'rgatdi. Ular o'rtasidagi samimiy muloqot, innovatsiya va an'ananing birlashuvi bugungi kunga kelib Yangi O'zbekiston va Markaziy Osiyo san'atining shiddat bilan odimlashiga zamin yaratdi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"



Yurtning ishonch tog'lar

## UZUN-UZUN YO'LLARDA

**Y**oshlik toshqin daryoga o'xshaydi, hech qanday to'siqni pisand qilmaydi. Yoshim ulg'ayib, ehtiyotkorroq bo'lib qolganim uchun buni yanada yaqqolroq his qilaman. Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishni yoqtiraman. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida o'tadigan tadbirlar ko'p diqqatimni tortadi. Ayniqsa, minbarda bolasini bag'riga bosib she'r o'qiyotgan yosh ona tamoman aqlimni egallab oldi. Yonida yana bir kichkintoyi ham bor. Uchovlari "Kitobxon onalar" tadbirining yorqin yulduzlari kabi porlab turishdi. "...bolalarim onasi she'r yozgani uchun hech qachon halovatsiz bo'lmaydi. Ular men uchun eng oldindadir. Buni doim his qilishlarini istayman", degan bu ona shoira, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi Madina Norchayevadir.

Yoshlikka shunday jasoratlilik, fidokorlik yarashadi. Yosh ona bir bolasi bag'rida, biri yonida minbarda she'r o'qiyotganida elning alp o'g'illari ham ana shu fayzli, nurli lahzalar uchun yurt himoyasida sobit turibdilar. Quyida ulardan uch nafar yosh ofitserning hikoyasini e'tiboringizga havola etamiz.



**MEHNAT BILAN YETAR MURODGA**

**Leytenant Bunyod ZARIFBOYEV:**  
– Xorazm viloyatining Gurlan tumanida tug'ilib o'sganman. Biz o'qigan 18-umumta'lim maktabida Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar o'tkazib turilar edi. Ular hammasi yosh, norg'ul, e'tiborni tortadigan yigitlar edi. Sinfdoslarim bilan mehmon bo'lib kelgan harbiy xizmatchilarga havas qilar edik, ulardek bo'lishni xayol qilganmiz. Suhbatlarini qiziqish bilan tinglar edik.

O'sha uchrashuvlar, suhbatlar ta'sirida men ham oliy harbiy bilim yurtiga o'qishga kirib, ofitser bo'lishni orzu qila boshladim. Bu yo'lda birgina orzu-havasning o'zi kamlik qilishini tez tushunib yetdim.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtini tamomladim. To'rt yil o'qish davomida Markaziy harbiy okrugga har yili amaliy mashg'ulotlarni o'tash uchun kelganmiz. Ilk ofitserlik faoliyatimni ham shu yerda guruh komandiri lavozimida boshladim.

Hali maqtanadigan biror ish qilmadim. Ammo zimmamdagi vazifalarni sidqidildan, mukammal bajarishga intilaman. Bir joyda qotib qolmaslik, izlanishni oldimga maqsad qilib qo'ydim.

Bugun, xuddi o'sha bolalik chog'larimda bo'lganidek, menga ham havas qiladigan ukalarim bor. Ularga egnimizdagi harbiycha kiyim, yelkamizdagi yulduzchalar ko'zga yaqin, ko'rkam ko'ringani bilan ortida mashaqqatli mehnat ham borligini ta'kidlagim keladi. Bu yo'l mashaqqatli albatta, biroq shuning barobarida sharaflari ham!

Bu yo'lni tanlaganimdan g'urur tuyaman!



**OLIS MANZILLARNI KO'ZLAB**

**Leytenant Islom ABILQOSIMOV:**  
– Vatan himoyachisi bo'lish bolalik orzum bo'lgan. Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida tug'ilib o'sganman. Oilada uch farzand ulg'aydik. Men ota-onamning to'ng'ichi. Otam quruvchi, onam uy bekasi. Ko'pchilik ota kasbiga qiziqadi. Rostini aytсам, quruvchi bo'lish haqida o'ylab ham ko'rmaganman. Xayolimni butunlay boshqa kasb egallab olgan edi.

Amakimning o'g'illari – akalarimga havas qilar edim, ulardek bo'lishga intilardim. Harbiy xizmatchi edi-da. Xuddi boshqa bir olamning odamlari kabi ko'rinishgan. Bolalik shunday o'zi, hamma narsaga o'z ko'zi bilan boqadi.

Niyatim qat'iy ekaniga otamni ishontirdim. Toshkent shahridagi "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyiga o'qishga qabul qilindim. Oson bo'lmadi, albatta. Ota-onam, oilamizdan yiroqda bo'lish... Keyin o'rganib ketdim.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining artilleriya yo'nalishini bitirdim. Markaziy harbiy okrugda guruh komandiri lavozimida xizmat



Sherzod SHARIPOV

qilyapman. Ayni kundagi faoliyatim kursantlikdan keskin farq qiladi. Mas'uliyat hissi yanada ortgan. O'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bor, tabiiy. Ammo kasbingni sevsang, mashaqqatlari ham sezilmaydi.

Vatan himoyachisi bo'lishni tanlaganimdan hech afsuslanmayman. Ba'zan tug'ilib o'sgan joyimga ziyoratga boraman. Bir holatdan juda sevinib ketaman: birinchi bo'lib qarshimga bolalar yugurib chiqadi. Ulardagi samimiyatni ta'riflab berolmayman. Keyin kattalar, keksalar... Bunday mehr insonni to'liqlantirib yuborar ekan.

Shunday lahzalarda shu el farzandi ekanimdan, shu elning xizmatida ekanimdan faxrlanaman, kuchimga kuch qo'shilganini his qilaman!



**OTAMNING ARMONI...**

**Leytenant Sarvar TOJIBOYEV:**  
– Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanida tug'ilib o'sganman. Ota-onam o'qituvchi. O'qituvchilarning farzandi bo'lsam-da bolalik, o'smirlikdagi tartib-intizomim bilan maqtana olmayman. Bu keyinchalik izga tushdi. Aniqrog'i, harbiycha hayotga kirib kelishim bilan barham topdi.

Oilamizda yagona harbiy xizmatchi men. Bir suhbatda otam harbiy xizmatchi bo'lishni orzu qilganini ammo sharoit va ba'zi sabablarga ko'ra bu unga armon bo'lib qolganini eshitdim. O'sha kundan boshlab otamga armon bo'lgan kasbni men egallayman, deb ahd qildim.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o'qishga kirdim. O'shanda otam o'zi o'qishga kirgandek quvonganini eslayman.

Ayni kunlarda guruh komandiri lavozimida xizmat qilyapman. Hech narsa oson va silliq bitmaydi. Yutuqlar zamirida mehnat yotadi. Tabiiyki, bugungi kunimiz kursantlikdan farqli. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etib o'rgandik, sohaning sir-asrorlarini egallashga harakat qildik. Zimmamizda yana bir muhim vazifa ham bor, bu – shaxsiy tarkib bilan ishlash. Katta mas'uliyat talab qiladi. Nazarimda ko'pchilik biz kabi yosh ofitserlar bu jiddiy sinovga duch keladi. Chunki biz bu borada hech qanday tajribaga ega emas edik.

Shunday paytda bizga ustoz ofitserlar yaqindan yordam beradi. Ular ham shu sinovlarni boshdan o'tkazib, tajriba orttirgan. Ularning yo'l-yo'riqlari bizga juda asqatadi.

Vatan himoyasi, yurt ishonchi zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu vazifani sharaf bilan o'tashga burchlimiz.

\*\*\*

– Harbiy jamoamizda ustoz-shogird an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgan, – deydi mayor Xurshid Ochilov. – Yosh ofitserlar o'zgacha shijoat bilan xizmatni boshlaydi, ularni qanchalik qo'llab-quvvatlasak, ijobiy natijalar ham uzoq kuttirmaydi. Jamoada xizmat qilayotgan yosh ofitserlar har tomonlama bilimli, izlanishdan zerikmaydigan, jamoat ishlarida ham faolligi quvonarli holat. Ular zimmasidagi vazifalarni sharaf bilan bajaryapti. Yurt ishonchi, Vatanga muhabbat ularga kuch berishi shubhasiz.

*Aziz o'quvchi, mana, siz yosh ofitserlarning qisqagina hikoyalari bilan tanishdingiz. Hikoyalar shu bilan tugab qolmaydi. Bu hayotda yo'llar ko'p. Har kimning o'z yo'li, hikoyasi bo'lishi tabiiy. Bu uch o'g'lon oldida ham uzun-uzun yo'llar bor, bu yo'llarni jasur insonlarga xos nomus va sha'n-shavkat bilan kechadilar degan umiddaman.*

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"

Gazetxon minbari

# DASTURXONINGIZNI

Bugun insonlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda qimmatbaho taomlar, dabdabali bayram va to'y dasturxonlarini suratga olib maqtanish odatiy holga aylandi. Afsuski, har kuni to'kin dasturxonni-yu hashamatli uyini ko'z-ko'z qilib, barchaning e'tiborini o'ziga qaratishni kundalik mashg'ulotga aylantirgan yurtdoshlarimiz ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

Qadim-qadimdan to'kin dasturxon mehmondo'stlikning, mehmonga hurmat ko'rsatishning bir shakli sifatida qabul qilingan. Bugungi kunda esa bu tushuncha o'zgargan – ko'pchilik to'kin dasturxonini nafis qilib bezashni mehmon uchun emas, balki "hamma menga havas qilsin", degan maqsadda internetga joylash uchun tashkillashtirmoqda.

To'y va marosimlarimizni olaylik. Bunda ham isrof haddan oshadi: tog'dek qilib yig'ilgan mevalar, turfa xil taomlar, shirinliklar, tortlar... Ma'lumki, otabobolarimiz kamchiqimlikni, isrofdan tiyilishni ulug'lagan. Bir vaqtlar oddiylik va kamtarlik insonning asl qadr-qimmatini belgilagan bo'lsa, bugun ortiqcha dabdaba va isrof yurtdoshlarimiz hayot tarzining belgisiga aylanib bormoqda.

**KIMGA KO'Z-KO'Z**

**QILYAPSIZ?**

Ijtimoiy tarmoqlarda zo'r berib maqtanayotgan dabdabali dasturxonlarni ko'rib, kimdir havas qiladi, kimdir esa ich-ichidan achchiq-achchiq "oh" tortadi. Chunki hamma ham bunday sarf-xarajat qilish imkoniyatiga ega emas.

Dasturxon maqtanchoqligi bilan birga bugun turmush o'rtog'ining qanday qimmatbaho ko'ylak olib bergani, qanday tilla taqinchoqlar tuhfa qilgani, qaysi davlatlarda dam olgani bilan maqtanish ham (ayniqsa, ayollar uchun) "trend" bo'ldi. "Yangi ko'ylagim yoqdimi? Turmush o'rtog'imning sovg'asi!" degan postlar ijtimoiy tarmoqlarni to'ldirdi. Ortidan esa: "Endi qayerga borsak ekan?" degan post qo'yiladi va unga javoban turli mamlakatlardagi sayohatlar, dengiz bo'yidagi romantik oqshomlar, qimmat restoranlarda qilingan tushlik suratlari joylab boriladi...

Albatta, har kim o'z hayotini o'zi tanlaydi. Lekin hammaning ham imkoniyati birday emas-da. Shuning uchun o'rtahol yashayotgan insonlar bunday hayotni ko'rib, o'zidan norozi bo'lib qolishi tabiiy. (Zero bugun insonlar o'rtasida baxt o'lchovini moddiylikka bog'laydiganlar ko'p).

Yana bir qiziq holat, mana shunday dabdabali hayotini namoyish qilayotgan ba'zi insonlar farzandining darsdagi past bahosidan yoki yomon xulq-atvoridan shikoyat qilib, bir post yozib qo'yadi: "O'qishga umuman qiziqmaydi!", "Yana past baho olibdi, kimga o'xshadi bu bola?" deb ayyuhannos soladi. Lekin savol tug'iladi: o'sha farzandga yaxshiroq ta'lim va tarbiya berish uchun ota-ona ijtimoiy tarmoqdan ortib, unga kerakli vaqt ajratayaptimi?

U bilan birga har kuni kitob o'qib, dars tayyorlayaptimi? Yoki u bilan dildan suhbat qilib, orzu-intilishlari bilan qiziqyaptimi?

Ehtimol, yangi ko'ylak tanlashga ketgan vaqt yoki ijtimoiy tarmoqlarga dabdabali postlar joylashga sarflangan soatlar bolaga ajratilganda, natija boshqacha bo'larmidi?

Aslida hayot ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatiladigan suratlar bilan emas, haqiqiy baxt va qadr-qimmat bilan o'lchanadi. Taomning mazasi – uni kim bilan tanovul qilayotganingda, kiyimning asl qiymati – uni kim hadya qilganida emas, balki sening shaxsiyatingda, oilaviy munosabatlaringda, bolalaringning odobi va ilmida.

Shuning uchun dabdabali dasturxon, qimmatbaho sovg'alar yoki chet el sayohatlari bilan emas, oila davrasida o'tkazilgan samimiy onlar bilan faxrlanishni o'rganishimiz kerak.

Siz qanday fikrdasiz? Moddiy narsalarni maqtanish o'miga, mehr-oqibat va tarbiyaga ko'proq e'tibor qaratish vaqti kelmadimi?

Gulihumo MAJIDOVA

Mehnat yarmarkasi



## AMALIY TADBIRLAR DAVOM ETTIRILMOQDA

Harbiy prokuratura organlari tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, shuningdek yoshlar va muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlar uchun mehnat yarmarkalari tashkil etilmoqda.

Ularning navbatdagisi Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Angren shahrida o'tkazildi.

Yetmishdan ortiq tashkilot va muassasalar bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etgan yarmarkada qatnashchilarning 30 nafari belgilangan tartibda o'zini o'zi band qilganlar ro'yxatiga olindi.

Jarayonda harbiy orkestr, faxriy qorovul chiqishlari va qo'ljangi namoyishlari tadbirga o'zgacha ruh bag'ishlab turdi.

Bundan tashqari, Milliy gvardiyaning Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida prokurorlik soati tashkil etildi.

Shuningdek, bir qator harbiy qism va muassasalarda olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari ahvoli o'rganildi. Yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Adliya polkovnigi Odil O'SAROV,  
Toshkent harbiy prokurori

Uslubiy yig'in

## YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA E'TIBOR



Markaziy harbiy okrugda Mudofaa vazirligi yong'in nazorati boshqaruv organlari ofitserlari va serjantlari bilan uslubiy yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishning birinchi kuni Mudofaa vazirligi yong'in nazorati boshqaruv organlari ofitserlarining 2024-yil davomida amalga oshirgan ishlari bo'yicha ma'ruzalari tinglandi.

Ikkinchi kuni qurilishi rejalashtirilayotgan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha texnik topshiriqlar, yong'indan xabar berish hamda avtomatik yong'in o'chirish tizimlarini to'g'ri qo'llash, shuningdek zamonaviy yong'in o'chirish avtomobillaridan unumli foydalanish mavzularida nazariy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Yig'ilish ishtirokchilariga hozirgi kunda zamon talablaridan kelib chiqib, harbiy obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan e'tibor kuchayib borayotgani uqitirib o'tildi.

Yig'ilishda 2024-yil davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqidiy o'rganilib, 2025-yil davomida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan qaror qabul qilindi.

Yig'in so'ngida Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi situatsion markazi faoliyati bilan tanishuv hamda ziyoratgohlarga safar amalga oshirildi.

Podpolkovnik Zokir KENDJAYEV,  
Mudofaa vazirligi yong'in xavfsizligi xizmati boshlig'i

Chegara qo'shinlarida



# XALQ VA ARMIYA

## - BIR TAN-U BIR JON!



Muddatli harbiy xizmat – Vatanning har bir mard o'g'loni uchun yuksak sharaf, qolaversa, jonajon yurti osoyishtaligi, uning hududiy daxlsizligini ta'minlash yo'lidagi muqaddas burch.

Bugun Qurolli Kuchlarimiz saflarida o'z yigitlik burchini o'tayotgan alp o'g'lonlar ham zimmasidagi ana shu mas'uliyatni chuqur his etgan holda jangovar xizmat faoliyatini olib bormoqda. Ular uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar, berilayotgan imtiyozlar esa askarlarimizning sohaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida Vatanimiz sarhadlarini qo'riqlayotgan muddatli harbiy xizmatchilarni o'sib kelayotgan yosh avlodga namuna sifatida ko'rsatish, ularning xizmatlarini alohida e'tirof etib, o'zlari va yaqinlarini muntazam ravishda rag'batlantirib borish ishlari yaxshi an'anaga aylangan.

Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Yoshlar markazida tashkil etilgan "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" shiori ostida o'tgan tadbirda ham kuch tuzilmalari mas'ullari, o'z yigitlik burchini sharaf bilan o'tab, yaqinlari bag'riga qaytish arafasida turgan askarlarning ota-onalari va o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

Unda so'z olganlar bugun dunyo va mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, eng oliy ne'mat bo'lgan tinchligimizni asrab-avaylash va qadriga yetish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotganini, oqni qoradan ajrata oladigan, har jihatdan barkamol, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda esa oila, mahalla va maktab uchligi beqiyos o'rin tutishini alohida ta'kidlab o'tdi.

Tadbir davomida, Farg'ona, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida o'z yigitlik burchini o'tab, davlatimiz chegaralarini

qo'riqlashda yuqori natijalarga erishib kelayotgan bir guruh askarlarning ota-onalari va yaqinlariga Chegara qo'shinlari qo'mondonining minnatdorchilik xati tantanali tarzda topshirildi.

– Bugungi tadbirdan juda ham mamnun bo'ldik. Chunki biz ota-onalar farzandlarimizga qanchalik mehribonchilik qilsak, davlatimiz bizdan-da ko'proq g'amxo'rlik ko'rsatmoqda. Hozir bu yerga yig'ilgan barcha ota-onalarning ham dilidan ana shu so'zlar o'tdi desam, yanglishmagan bo'laman. Albatta, bularning barchasi muhtaram Yurtboshimizning sa'y-harakatlari natijasida amalga oshmoqda. Shu bois, ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun yurt himoyasida turgan barcha askar o'g'lonlarning ota-onalari nomidan Prezidentimizga chuqur minnatdorlik izhor etaman, – deydi Mastura Asronova.

Shu kuni tadbirda ishtirok etgan o'quvchi-yoshlarni harbiy sohaga qiziqtirish va kelgusida ulardan munosib izdoshlarni tayyorlash maqsadida, markaz hovlisida harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi tashkil etilib, ularning taktik-texnik tavsifi va qo'llanilishiga oid ma'lumotlar ertamiz egalariga tushuntirib berildi.

Ta'kidlash joizki, respublikamiz bo'ylab o'tkazilayotgan shu kabi tadbirlar xalq va armiya yakkilligini mustahkamlash bilan birga, yurtga sadoqatli, Vatan uchun jonini fido etishga tayyor asl farzandlarni tarbiyalashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



## Tarix sadosi

## BUXORONING

## MUDOFAA ISTEHKOMI

Tarixdan ma'lumki, shaharlarning muhim belgilaridan biri ularning mudofaa devorlari bilan o'rab olinishidir. Iyota inshootlari nafaqat dushmandan himoyalash, xavfsizlikni ta'minlash, balki qal'a qo'rg'onlarining qudratini ham namoyon etgan. Shuningdek, devorlar shaharning o'tmish tarixi, umumiy hududi, uning topografiyasi, toponimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, harbiy salohiyati, etnolokal ma'lumotlarni bilishda muhim ahamiyatga ega.

Buxoro vohasida bugungi kunda uchta devor qoldiqlari saqlangan bo'lib, mahalliy aholi ularni ajratishda aksariyat hollarda chalkashliklarga uchraydi. Ularning birinchi butun vohani o'rab olgan Kampirak yoki Kampir devor bo'lib, uning uzunligi 330 km ni tashkil etadi. Ikkinchisining uzunligi 12 km bo'lib, Buxoro shahrining 555 gektarlik Eski shahar qismini o'rab turgan. Uchinchi shahar ichidagi shahar nomi bilan mashhur Arki oliyning 800 metrga cho'zilgan devor qoldiqlaridir. Qizilqum saholari orqali o'tgan voha devori bugungi kungacha saqlanmagan, faqatgina Qiziltepa tumanida ayrim vayrona qismlarini ko'rish mumkin. Nisbatan yaxshi saqlangan devor bu shahar ihotasi bo'lib, atigi 10-15 foizi hozirda qad rostlab turibdi.

Muarrir Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida xalq Buxoro amiri bo'lib turgan Ahmad ibn Xoliddan "Shahrimiz atrofida devor bo'lishi kerak, toki biz kechasi darvozalarni berkitib, o'g'rilar va yo'lkesarlardan tinch bo'laylik", degan talablari bayon etilgan. Shundan keyin devor qurilishiga buyruq beriladi. Juda mustahkam devor qurilib, minoralar barpo etiladi, davrozalar o'rnatiladi. Bu ish 849-850-yillarda bajariladi. Asarda yozilishicha, "Har qachonki biror lashkar Buxoroga qasd qilsa, devorni qayta tuzatishar edi".

Buxoro shahri devori tarixiy taraqqiyot davrlari natijasida kengayib borgan. Akademik Abdulhad Muhammadjonovning ma'lumot berishicha, Buxoroda o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiya natijasida moddiy madaniyat izlari orasida 15,5 metr hamda 18,5 metr chuqurlikda kovlab ochilgan qadimgi ikki mudofaa devori qoldiqlari topilgan. Shundan birinchi mudofaa devori 2,5-3, ikkinchisi 2-2,5 metr balandlikda saqlangan. Mir Arab madrasasining yaqinida olib borilgan qazilmalar chog'ida 4,5 metr chuqurlikda shaharning qadimgi mudofaa devori qoldiqlari qayd etilgan. Devor paxsa hamda xom g'ishtdan bo'lib, 5-6 metr balandlikda saqlangan. Ushbu mudofaa inshooti V-VI asrlarda qad ko'targan bo'lib, bir necha bor ta'mirlanib, qayta-qayta tiklangani isbotlangan. Shu sababdan ilk o'rta asrlarga kelib, uning qalinligi 17 metrgacha yetgan. Qadimshunoslik ma'lumotlariga qaraganda, mudofaani kuchaytirish maqsadida devor atrofida harbiy qo'rg'onlar qurilgan. Buxoro shahri mudofaasi haqidagi ma'lumotlar Xitoy manbalarida ham saqlanib qolgan. Ularda shahar besh qavat devor bilan o'rab olingani bayon etilgan.

**Islomgacha bo'lgan davrda shaharning umumiy maydoni 30-35**

**gektarni tashkil etgan.** Shaharning butun aylanmasi 1 050 sarjin yoki 1-2 chaqirimdan iborat edi. Buxoro devori ko'plab hukmdorlar tomonidan qayta qurilib ta'mirlangan. Xususan, buxorudot Budin, Ahmad ibn Xolid, Mas'ud Qilich Tamg'ochxon, Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash davrlarida devor yangidan qurilib, ta'mir etilgan. Masalan, Budin huvullab vayronaga aylangan shaharni tiklab, qal'a devorini yangilagan. Somoniylar sulolasining dastlabki hukmdorlari davrida shahar atrofini cho'l ko'chmanchi bosqinchilaridan himoya qilish uchun qalin devor bilan o'rab olingan edi. Devorni ta'mirlash uchun maxsus soliqlar to'planardi. Ammo amir Ismoil Somoniy Buxoro devorini qurishni ham, tuzatirishni ham rad etgan va u: "To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman" deb, o'ziga olgan vazifani to'la bajargan, u doimo janglarda o'zi qatnashgan va Buxoro viloyati ustidan dushmanlarning zafar topishiga yo'l qo'ymagan.

O'rta asrlarda Buxoro shahrining mudofaa devorlari mustahkam qurilgani tufayli "misdan quyilgan shahar", "misdan yasalgan istehkom", "mis shahar" ma'nolarini anglatuvchi "Madinat us-sufriya" atamasi berilgan. Bundan tashqari, shaharning qal'a, qo'rg'on ma'nolarini bildiruvchi Numijkat, Bumiskat nomlari mustahkam shahar bo'lganiga ishoradir. Bu nomlardan birinchi Navmichkat, u uchta fors-tojikcha nav-yangi, mich-qal'a, istehkom va kat-qishloq kabi so'zlardan iborat bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, "Yangi qal'a", "Yangi qo'rg'on" ma'nolarini anglatgan.

**Shahar devori oxirgi marotaba 1540-1549-yillarda shayboniylar sulolasidan Abdulazizxon davrida kengaytirilgan.** XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon siyosiy kurashlarda uni qo'llashgan Jo'ybor xojalariga minnatdorlik sifatida Jo'ybor tumanining g'arbiy qismini shahar hududiga qo'shgan. Buning uchun Abdulazizxon qurdirgan devor g'arbiy qismining bir bo'laki buzilib, yangitdan besh darvozali g'arbiy devor ko'tariladi. Undan keyingi davrlarda devor o'zgartirilmagan. Faqat ta'mirlab turilgan xolos. Bu bilan shahar umumiy maydoni 440-450 gektarni tashkil etgan va darvozalar soni 11 taga yetgan. Darvozalar soni XX asr boshlarigacha shu holatda o'zgarmay kelgan. Devor bo'ylab joylashgan 11 ta darvoza orqali shaharga kirish-chiqish nazorat qilingan va mustahkam qo'riqlangan. Yarim aylana silindrsimon shakldagi qo'shminorali darvozalar shom namozidan keyin yopilib, bomdod namozidan so'ng ochilgan.

So'nggi o'rta asrlarda Buxoroga tashrif buyurgan sayyoh va elchilar devor bilan o'rab olingan shaharning umumiy maydonini 1 739 talan yoki 1 564 875 kv. sajenni tashkil etishini yozib qoldirgan. 1893-yilda Turkistonga sayohati mobaynida "Movarounnahr yoxud Transoksiyanaga safar" asarini yozgan Zohir Bigiyev "Buxoro Pekin shahri kabi loydan yasalgan buyuk devor bilan o'ralgan. Devor to'rt sajen balandlikda, ikki sajen kenglikdadir. Uzunligi 11 chaqirim to'rt yuz sajenga yaqin. Darvozalarning ikki tarafida eski usul bo'yicha jang uchun ikki tosh minoradek bir narsa bor" deb tasvirlagan.

Devor g'isht qistirmali paxsadan bo'lib, o'rtacha balandligi 5-10 metr atrofida bo'lib, qalinligi poydevorida 5-6 m, yuqori qismida 1,5-2 metrni tashkil etgan. Har 100 m masofada yarim aylana jami 116 ta (ayrim manbalarda 131 ta) burjlar hosil qilingan bo'lib, bu orqali mudofaa qudrati oshirilgan. Toj shaklidagi tishli dekor qismlaridan iborat devomning yuqori qismi dandona deb nomlangan. Dagona deb ataluvchi soqchilar yo'lga esa dumaloq mudofaa maydonlari va shinaklar bilan ta'minlangan.

O'lkashunos professor Muso Saidjonovning tadqiqotlariga ko'ra, shahar atrofida xandaq qilinib, uning ba'zi qismlari Shayboniy Abdulazizxon (1557-1598) davrigacha mavjud bo'lgan.

Devor buxoroliklarning yashash hududi etimologiyasi shakllanishi, xususan shahar ichkarisi (az qal'a darun) yoki tashqarisi (az qal'a berun)da istiqomat qilishini belgilashda

muhim o'rin tutgan. Jo'ybori darun va Jo'ybori berun, Dilkushoyi darun va Dilkushoyi berun hududlari bunga misol bo'la oladi. Devor zamonaviy fors-tojik lug'atlarida qal'a deb keltirilib, "baland loysuvoqli yopiq devor", "mustahkamlangan qishloq" ma'nolarini anglatgan. Buxoroliklar shahar devorini qal'a deb atagan. Shu sabab kunji qal'a (qal'aning burchagi), nugi qal'a (qal'aning uchi), miyoni qal'a (qal'aning o'rtasi), tagi qal'a (qal'aning oldi) kabi shaharning topografik joy nomlari sekin-asta shakllangan va hozirgacha ham ishlatilib kelinadi.

**Bugun Buxoro ochiq osmon ostidagi muzey shahar sifatida qadrlanadi.** Aslida bunday sharaf ming yillik obidalarni mustahkam devor ila o'rab olgan qadim qal'aga nisbatan aytilgan. Shahar devor bilan birga yaxlit kompozitsiyani tashkil etadi, aslida. Sayyohlar ham ayni shunday o'rta asrlar tipini saqlab qolgan qadimiy shahar tomoshasiga oshiqadi. Shunday ekan, biz ham tarixda mustahkamligi sabab mis va bronzaga qiyoslangan, hozirda esa oltinga barobar ko'hna kent devorini saqlab qolishimiz darkor.

Jahon sayyohlik tashkiloti birgina Buyuk Xitoy devorini ko'rishga millionlab sayyohlar tashrif buyurishini e'tirof etadi. Bugun yiliga 5 mln sayyoh keladigan O'zbekiston turizmiga devor va darvozalardan iborat mudofaa inshootlari bo'ylab sayyohlik yo'nalishini kiritish nafaqat obidalarni ta'mirlash, balki ularni ajdodlarimiz qudrati va zakovati timsoli sifatida targ'ib qilishga xizmat qiladi.

**Shavkat BOBOJONOV,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
dotsenti, tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

## O'zbekiston chempionati

Ugom-Chotqol tog' fizmasidagi qoyalalar hamisha qor bilan qoplangan bo'ladi. Ayniqsa, qishda qorning qalinligi odamning belidan, hatto undan ham o'tadi. Sovug'i qattiq. Bu yerda kunlab qor yoqqaniga shaxsan guvoh bo'lganman.

**“CHANG'I UCHSAM**

**PARVOZ  
ETAYOTGANDEK  
BO'LAMAN”**



Darvoqe, Mudofaa vazirligi Tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazi ana shu osmono'par qoyalarga yaqin joyda joylashgan. Harbiy xizmatchilar tabiat inijliklariga-ku, ko'nib, o'rganib ketgan. Ammo yana bir toifa odamlar borki, ular etni junjiktiradigan sovuqqa ham bardosh berib, qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o'tishga harakat qilib yashaydi. Ehtimol, maqsad aniq bo'lsa, kishida shunday kuch paydo bo'lar. Yana bilmadim. Ular kim deysizmi? Sportning biatlon turi bilan shug'ullanadiganlar-da. Bunga markazda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatini kuzatib yana bir bor amin bo'ldim. Sportsevar yoshlar bir necha kun davomida g'oliblik uchun o'zaro kurash olib bordi.

Bahslar individual konk sharti bilan start oldi. Unda qatnashchilar umumiy hisobda 4 km masofani 5 marotaba aylanishi kerak. Har aylana yakunida esa otish maydoniga kelib, biatlon 7,4 miltig'idan 50 metrdagi nishonni mo'ljalga oladi. Bu jarayon bir yotib, bir tik turgan holda amalga oshiriladi. Ahamiyatlisi, agarda chang'ichilar nishonga o'qni tekkiza olmasa, unda uning to'plagan umumiy baliga 1 daqiqa jarima vaqt qo'shiladi.

Sprint shartida esa ishtirokchilar umumiy masofasi 10 km bo'lgan hududni aylanib chiqishi kerak. Otish nuqtasiga yetib kelib, bitta yotib, bitta turgan holda nishonlarni ko'zlaydi. Har bir yopilmay qolgan nishon uchun esa 150 metr qo'shimcha jarima maydonini bosib o'tish belgilangan. Shuning uchun ham har bir ishtirokchi, avvalo,

belgilangan masofani raqibidan oldin bosib o'tishga va o'ta aniqlik bilan nishonlarni mo'ljalga olishga harakat qildi.

– Mudofaa vazirligi, Biatlon federatsiyasi va O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti hamkorligida tashkil etilgan mazkur musobaqada yuzlab yoshlar ishtirok etdi, – deydi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi boshlig'i polkovnik Mansur Mamadaliyev.

– Ta'kidlash kerakki, shartlar yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan, o'z ustida jiddiy ishlamagan qatnashchilar uchun qiyin kechadi. Chunki vazifalar o'ta murakkab. Qolaversa, berilgan shartlarni bajarish davomida ishtirokchi biron-bir

o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Qolaversa, kayfiyatini ham yaxshi-laydi, stressni kamaytiradi va depressiyaga qarshi kurashishga yordam beradi.

– Bugun yana bir g'alabani qo'lga kiritdim, – deydi chempionat g'olibi Shahlo Abdiyeva. –

Ochig'i, bu oson kechmadi. Sababi raqiblarim ham yuqori tayyorgarlik ko'rgan. Yetarli tajribaga ega. Omadim ko'proq chopgani uchun l-o'rinni egalladim va keyingi musobaqalarda ham mana shunday natijalarni qayd etish uchun tinimsiz izlanishdan to'xtamayman. Maqsadimiz yurtimiz bayrog'ini xalqaro maydonda ham yuqori ko'tarib, bildirilgan ishonchni oqlashdir.

– Tog'oldi hududlarda kechgan chempionat qatnashchilarning chidamliligini, bardoshini va tezkorligini sinovdan o'tkazdi, – deydi chempionat g'olibi Rolan Raimqulov. – Bir necha yildan buyon ushbu sport bilan ustoz-murabbiylarimdan saboq olib kelyapman. Bilasizmi, har qanday sport turining o'ziga yarasha murakkabligi bo'ladi. Uni to'liq o'zlashtirish, sir-asrorlarini chuqur o'rganish uchun tinim bilmaslik kerak. Murabbiyim joyi kelsa, qattiq tanbeh beradi. Sira xafa bo'lmayman. Ba'zida ob-havo sizga qarshi chiqishi mumkin. Ya'ni qor chang'ini ayamay surib yuboradi. Ana shunda tajribali bo'lmasangiz, ahvolingiz voy.

Lekin baribir chang'i uchsam parvoz etayotgandek bo'laman.

Chang'ida uchish ko'ringanidek oson emas. Negaki kishi, avvalo, g'avdani tik tuta bilishi, qo'li va oyog'ini birga harakat qilishini ta'minlashi va eng muhim tezkor qarorlarni qabul qila olishni bilishi kerak.

Sababi katta tezlikda ketayotgan chang'ichi kutilmaganda sakrashi yoki burilishi mumkin. Ana shunda uning chaqqonligi va egallagan bilimi qo'l keladi.

Ta'kidlash kerakki, 3 toifadagi yoshlar o'rtasida o'tkazilgan ushbu chempionatda qatnashgan o'g'il-qizlar quyi bosqichlarda tengqurlari ustidan g'alaba qozonib, tengsiz ekanini amalda isbotlagan. Biroq yakuniy bahslarda ular yanada ilg'orroq bo'lishga harakat qildi. Chunki bu yerda eng munosiblar jamlangan. Ularning har biri yetarli tajribaga, bilim va ko'nikmaga ega. Ustoz-murabbiylaridan kerakli bilimlarni olgan. Biatlonning muhim sirlarini chuqur o'rgangan.

Chempionatda nafaqat bilimlar to'qnashdi, balki jamoalarning o'zaro jipsligi, tarkibning chidamliligi va merganligi ham qadamma-qadam sinovdan o'tdi. Yakunda eng munosiblar tanlab olindi. G'oliblar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
“Vatanparvar”



## She'riyat ufqlari

Mayor

**Anar AHMEDOV,**  
Ozarbayjon Respublikasi  
"Asgar" gazetasi muharriri

Ozarbayjon —  
O'zbekiston

Xalqlarining ildizi bir,  
Joni birdir, qoni ham bir,  
Dini bir-u, tili birdir,  
Turk elida qadim makon,  
Ozarbayjon – O'zbekiston.

Mard yigit-u shunqorlaring,  
Qonin to'kkan Vatan uchun.  
Jonajon el-diyorisan,  
Jasurlikda yozgan doston,  
Ozarbayjon – O'zbekiston.

Birodar-do'st shaharlari,  
Juda qadim tarixlari,  
Lol qoldirar har kimsani,  
Ilm, san'at dahosisan,  
Ozarbayjon – O'zbekiston.

Nizomiy ham Navoiyning,  
"Xamsa"sini o'qiganman.  
Insonlikka nurin sochgan.  
Madaniyatda gultoj maskan,  
Ozarbayjon – O'zbekiston.

Serhosildir tuproqlari,  
Maroqlidir har bir oni,  
Mehrlidir insonlari,  
Har biriga jonim qurbon,  
Ozarbayjon – O'zbekiston.

Tarjimon Gulzira Sharipova

Shaharlar shahari,  
go'zal Samarqand

Afrosiyob edi avvalgi noming,  
Yoyilgan jahonga shuhrating, shoning,  
Tiliga yod bo'lgan qari dunyoning,  
Qalbini fath etding sen Batuttaning,  
Boqib maftun bo'lgan, ot qo'ymish senga:  
Shaharlar shahari, go'zal Samarqand.

Registon maydoni urib turgan qalb,  
Hammani lol etar madrasalari,  
Temurning turbati, Bibixonim masjidi,  
Shohi Zinda atalgan o'shal maskanni,  
Ochig'i, bunchalik bilmagan edim,  
Shaharlar shahari, go'zal Samarqand.

O'zbek qardoshimning o't yuragisan,  
Olgan nafasisan, ko'rar ko'zisan,  
O'tmishi, buguni, kelajagisan,  
Buyuk turk millatin shoh asarisan,  
Insonlari go'zal, suhbatlari qand,  
Shaharlar shahari, go'zal Samarqand.

Ko'rmagan esam-da, vasf etdim seni,  
Surating-la yana jalb etding meni,  
Jismim-la Bokuni, ruhim-la sening  
Tez-tez sayr qilaman ko'chalariningni.  
Devona shoirdek bo'ldim senga band,  
Shaharlar shahari, go'zal Samarqand.

Tarjimon Rahmat Bobojon

**Eshniyoz BURHONOV**  
Qashqadaryo viloyati,  
Qamashi tumani

Hamroh bo'lsin,  
a'lo kayfiyat

Ishlagan chog', ko'p xursand bo'lib,  
Qalbg'a oy nur sochganday kulib,  
Ko'ngil rosa shodlikka to'lib,  
Unum berar, a'lo kayfiyat.

Qushday suzgan kabi osmonda,  
Kezgan kabi, chaman-bo'stonda,  
Yashayapmiz, obod makonda,  
Ruhlantirar, a'lo kayfiyat.

Orom berib, xo'p, asabiga,  
Shodon kulgi qo'nib labiga,  
Sevingan chog', odam qalbiga,  
Ilhom berar, a'lo kayfiyat.

Rivoj topsin, shu aziz makon,  
Gulga to'lsin, har bir xonadon,  
Hamroh bo'lgan chog', shodlik har on,  
Zavqlantirar, a'lo kayfiyat.

Har on bo'lib, vaqtingiz xo'p chog',  
Ko'tarilib ko'ngil, misli tog',  
Sizga doim chin do'stday hamroh,  
Bo'lsin do'stlar, a'lo kayfiyat.

O'zbek degan el dovrug'in  
olamlarga yoygaymiz

**Sadoqat HAMRAYEVA**  
Samarqand viloyati,  
Kattaqo'rg'on tumani

## O'zbek elim

Amir Temurdek mard inson, qahramoni bor elim,  
Beshigida Alpomishday pahlavoni bor elim.  
Dorilamon kunlar keldi, yuksalish vaqti yetdi,  
Karvon yo'lda, yo'l boshlovchi – mard sarboni bor elim!

Bobolardan meros zamin – bu tuproq shonimizdir,  
Ona yurtning shon-shuhrati bizning ham sha'nimizdir.  
Xalq birlashsa qo'llagay Haq, Vatan shunda topar ravnaq,  
Jaloliddin Manguberdi shiddati qonimizda!

Navoiydan so'z ketganda, dilda faxr tuygaymiz.  
Forobiy, Beruniy, bobom deya suygaymiz.  
Biz ulug'lar zurriyoti, biz Xorazmiy avlodi,  
O'zbek degan el dovrug'in olamlarga yoygaymiz!

Quv nar, jahon sahnasida yurt madhin tinglab, dilim.  
Yuragimga so'ngsiz surur baxsh etar o'zbekligim.  
Mushti bilan lol aylar – kim, aql bilan mot aylar – kim!?  
Ming yillarki, daholarga doyadir o'zbek elim!

## Hayot

Matonatga qalbim esh bo'lib,  
Orzularim bog'lasin qanot.  
Tashvishlarga sabrim pesh qilib,  
Yashamoqqa haddim bor, hayot.

Bir iz qolsin inson ortida,  
Ikki umrin qilguvchi obod.  
Jonbaxsh etgan zotlar oldida,  
Ado bo'lmas farzim bor, hayot.

Unga chopib, bunga yugurib,  
Umrin yelib o'tyapti, nahot.  
Bexud o'tgan fursatlar uchun,  
To'lab bo'lmas narzim bor, hayot.

Yaqinlarim ko'nglin qilib to'q,  
Mehrim izhor qilaman bot-bot.  
Kimga yoqar, kimga esa yo'q,  
Shunday yashash tarzim bor, hayot.

Ne sinovlar qarshisida tik,  
Borki g'aming simirdim, hayhot.  
Lek yuragim bir burchi kemtik,  
Senga, shundan arzim bor, hayot.

O'zing buyuk ustozsan beshak,  
Har o'giting bo'lgaydir imdod.  
Umr bo'yi men o'rganajak,  
Hali ancha darsim bor, hayot.

Kichik serjant

**Dilnoza SULAYMONOVA**  
HHMQ va HHK  
qo'mondonligi

## Vatan

Loy suvoqli paxsa devor, qo'rg'onimsan,  
Yulduzlari alla aytar osmonimsan.  
Menga aziz rayhon bo'yli quchoqlaring,  
Qora qumg'on, qora qozon, o'choqlaring,  
Jonim Vatan!

Qaldirg'ochlar inlar qurgan ayvonimsan,  
Ming urug'ning boshin qo'shgan kayvonimsan.  
Tumor bo'lay, beshikdagi alplaringga,  
Alplaringga umid tikkan qalblaringga,  
Jonim Vatan!

Qiblagohim, sajdagohim, panohimsan,  
Sen-chun ichgan qasamimga guvohimsan,  
Jon sadqadur, sen uchun deb ichdim qasam,  
Qanday qizman bir ontimga yaramasam,  
Jonim Vatan!

Alplar safidagi ayollar

# HARBIY LIBOSDAGI

## OY MALIKALAR



III darajali serjant  
Yulduz TADJIBAYEVA



III darajali serjant  
Feruza XODJAMURATOVA



III darajali serjant  
Go'zal ILHOMOVA

*Yovqurlarga safdosh mardonalarsiz,  
To'maris izdoshi – afsonalarsiz,  
Shahd-u shijoatda yagonalarsiz,  
Harbiy libosdagi oy malikalar.*

Yurtimiz tinchligi, sarhadlarimiz osoyishtaligi, mustaqilligimiz barqarorligi yo'lida tunlarni tongga ulab xizmat qilayotgan Vatan himoyachilarining zahmatli burchi hamisha ulug' e'tirofga sazovor bo'lib kelgan. Tinchlik posboni deganda, avvalo, ko'z oldingizda alp yigitlar gavdalanadi. Biroq ularning safida xizmat qilayotgan olovqalb ayollarimiz borki, ulardagi g'ayrat va shijoat, kasbiga bo'lgan mehr va sadoqatga havas qilasan kishi.

Ayol kishi uchun onalik, rafiqalik baxtidan ortiq ne'mat bo'lmasa kerak. Sizga tanishtirmoqchi bo'lgan harbiy libosdagi malikalarimiz esa oilasini va sevgan kasbini birdek ardoqlab kelayotgan hurmatga sazovor Vatan himoyachilaridir. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan bu ayollarning fidoyiligi tahsinga loyiq.

### Kasbim – umrim mazmuni

III darajali serjant Yulduz Tadjibayeva tongni ko'tarinki kayfiyatda qarshi oldi. Tuni bilan jangovar navbatchilikda turgan bo'lsa-da, toliqish sezmedi. Negaki dispetcher sifatida osmonimiz musaffoligi, havo sarhadlarimiz daxsizligini asrashga ulush qo'shganidan qalbi taskin topdi. U oilasi tomon shoshilar ekan, bekalik yumushlarini bir-bir ko'z oldidan o'tkazdi. Xonadon orastaligi, turmush o'rtog'i va o'g'illariga taomlar tayyorlash, kiyim-kechaklariga e'tibor qaratish va yana bir qator ishlar. Ha, oilada ayol kishi bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning sanog'i yo'q.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida voyaga yetgan Yulduz Tadjibayevaning egniga harbiy libos kiyganiga yigirma yil bo'ldi. Albatta, o'tgan xizmat davri uning hayotida katta iz qoldirgani aniq. Yulduz to'lib-toshib o'z fikrlarini bayon qildi:

– Harbiy xizmatchi bo'lishni orzu qilganimda juda yosh edim va bu sohaga kirish oson emasligini yaxshi bilardim. Harbiy xizmatchilar sulolasiga kelin bo'lganimda, maqsadim sari yaqinlashganimni his qildim. Chunki turmush o'rtog'imning ota, uka va singillari harbiy sohada faoliyat yuritardi. Niyatimni anglagan qaynotam va umr yo'ldoshim maqsadimni qo'llab-quvvatladi. Astoydil tayyorgarliklardan so'ng sinovlardan

muvaffaqiyatli o'tib, kontrakt bo'yicha oddiy askar bo'lib katta operatorlik vazifasida xizmat boshladim. Bu quvonchli kun hayotimda unutilmas iz qoldirdi. Harbiy ustozlarimdan soha sirlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib bordim. Harbiy kasb mas'uliyati zalvarli bo'lishi tabiiy hol. Ammo sevgan sohasida xizmat qilgan inson barcha qiyinchiliklarni yenga oladi. Bugun dispetcher sifatida III darajali serjantlar Roza Haydarova, Nargiza Sultonova kabi safdoshlarim bilan yurtimiz tinchligi, osmonimiz musaffoligiga munosib ulush qo'shib kelayotganimdan mamnunman.

Oilani kichik Vatan deya ta'rifiylaymiz. Uni asrash, farzandlar ulg'aytirish, el nazariga yetkazish ham katta mas'uliyat. Yulduz bu borada ham xizmati va oilasini birdek ardoqlab kelayotgan fidoyi ayollardan. Turmush o'rtog'i va farzandlarining beminnat mehriboni. Onalik va rafiqalik burchini uddalab kelayotgan go'zal oila bekasi. Oilaning katta farzandi Abbosjon Toshkent tibbiyot akademiyasining 5-bosqich talabasi bo'lsa, kenja o'g'il Sardorbek O'zbekiston jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetida tahsil olyapti.

Bir so'z bilan aytganda, lavhamiz qahramoni III darajali serjant Yulduz Tadjibayevani sharafli kasb egasi va namunali oila bekasi sifatida e'tirofga sazovor fidoyi ayol, desak, arziydi.

### Sakkiz qizning sardori

Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't shahrida istiqomat qilayotgan Yuldash aka va Anorgul opa xonadonida to'qqiz farzand – sakkiz qiz va bir o'g'il voyaga yetdi. Sizga tanishtirmoqchi bo'lgan III darajali serjant Feruza Xodjamuratova mana shu xonadonning g'ayrat va shijoatda benazir qizlaridan biri. Pedagogika bilim yurtini bitirgan Feruza harbiy xizmatchi bo'lishga jazm etganida ota-onasi qo'llab-quvvatladi. 2004-yilda uning orzusi amalga oshdi, harbiy xizmatchilar safida qad rostladi.

Yillar davomida bir qator harbiy qism va muassasalarda telefon stansiyasi boshlig'i, mexanik telegrafchi, aloqa tugunida hujjatlar bilan ishlash, mas'ul ijrochi kabi vazifalarda faoliyat yuritgan maqolamiz qahramoni bugun e'tirofga sazovor harbiy libos malikalaridan biri.

Oila qurib, farzandlar ko'rish har bir qizning orzusi, shubhasiz. Feruza ham 2010-yili o'z baxtini topdi. Uning kasbini hurmat qiladigan Ravshanjon Hasanov

bilan oila quradi. O'g'li Umarjon va qizalog'i Mubina ularning hayoti mazmuniga aylandi.

– Harbiy libosdagi ayollar uchun uning kasbini tushunadigan inson bilan oila qurish katta ahamiyatga ega, – deydi Feruza suhbat chog'ida. – Shuning uchun sevgan kasbimda o'rin topgunimga qadar oila qurishga shoshilmadim, xizmatim mas'uliyatini tushunadigan, hurmat qiladigan insonni kutdim. Bugun mehr qo'ygan kasbim, sevimli insonim va o'g'il-qizim bilan baxtliman. O'g'lim Umarjon harbiy uchuvchi bo'lishni maqsad qilgan, qizim Mubina esa shifokor bo'lmoqchi. To'g'ri, ular hali yosh, ammo oldilariga ulkan orzular qo'yganidan xursandman. Xizmatda o'rin topishim, kasb sirlarini egallashimda ustozlarim iste'fodagi serjant Mohim Shermatova, iste'fodagi kichik serjantlar Dilfuza Nurimova hamda Nodira Boymuratovanning hissasi katta. Xizmatdagi maqsadim bitta – komandirlarim va ustozlarim ishonchini oqlash. Hayotda esa hamisha qat'iyatli bo'lish va oldinga intilishga harakat qilaman.

Darhaqiqat, hayot harakatdan, oldinga intilishdan iborat. Oiladagi sakkiz qizning sardori bo'lgan Feruza uchun ota-onasi hamisha duoda. U poytaxtda istiqomat qilayotgan bo'lsa-da, Qoraqalpog'istondagi yaqinlariga o'z vaqtida mehr ko'rsata oladi. Zero ayol mehri va qat'iyati ulug' ishlarga qodir kuchdir.

### Baxt qasrining bekasi

Yana bir munavvar tong otdi. III darajali serjant Go'zal Ilhomova har galgidek tongni erta qarshi oldi. Qaynoma va qaynotasi, turmush o'rtog'i va farzandlariga nonushta tayyorladi. Ha, u katta oilaning sevimli kelini. Har tong oila kattalarining duosi ila xizmatga yo'l oladi. Turmush o'rtog'ini ishga, o'g'il-qizini maktabga kuzatishi, o'zi esa mas'uliyatli xizmatiga o'z vaqtida yetib borishi shart.

Go'zalning harbiy sohadagi vazifasi alohida qo'riqlash va xizmat ko'rsatish bazasida mas'ul ijrochi, to'g'rirog'i, moliya ishi bilan bog'liq vazifada mas'ul xodim. Sir emaski, moliya sohasi, ya'ni hisob-kitob aniqlikni talab etadi. Bu borada o'quvchiligidan aniq fanlar a'lochisi bo'lgan, bank kollejni bitirgan Go'zal Ilhomovaga yetadigani yo'q. Mana,

yigirma yildirki, u harbiy libosda o'z kasbini ardoqlab kelyapti. Uning harbiy sohaga mehr uyg'onishida otasi Ibrohim akaning ofitserligi o'rin tutgan bo'lsa, moliya yo'nalishiga qiziqishida katta korxonada bosh hisobchilik qilgan onasi Aida opadagi iqtidor zalvarli o'rin tutgan. Harbiy sohadagi faoliyatida ustoz Nadejda Yeliseyevadan minnatdor ekanini qayta-qayta takidlab o'tdi. Xizmat davomida erishgan yutuqlarida esa... Keling, bu haqda maqolamiz qahramonining o'zidan eshitamiz:

– Men hayotda eng baxtli ayollardan biriman, desam, yanglishmayman. Ota-onam orzularimga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarimga har tomonlama tayanch bo'lgan. Ayniqsa, onajonimning harbiy libos kiyish istagi menda amalga oshgani uchun ular juda xursand bo'lgan. Qiz bolaning ikkinchi hayoti kelin bo'lib tushgan joyida davom etadi, deyishadi. Turmush o'rtog'im bilan oila qurganimizdan keyin hayotimda o'ziga xos yangi davr boshlandi. Harbiy xizmat bilan birga kelinlik, rafiqalik, onalik vazifalarimni uddalashimga to'g'ri keldi. Bu borada qaynoma va qaynomanamdan behad minnatdorman. Shoistaxon qaynoma onam menga oilaga bekalik qilish vazifasini o'zlashtirishimda juda katta tayanch bo'ldi, yordam berdi. Ayniqsa, farzandlarim dunyoga kelganida ularga suyardim. Xizmatda erishgan yutuqlarim, mukofotlarimda ham menga har tomonlama sharoit yaratib bergan oila kattalarining hissasi beqiyos. Hozirda qizim Madinabonu 10-sinfda tahsil olyapti, ingliz tilini o'zlashtirishda bir qator yutuqlarga ega. O'g'lim Solihjon esa ikkinchi sinf o'quvchisi, darslarda a'lochi va sportchi. Kasbim o'zimga yoqqani uchun mehr bilan xizmat qilaman. Har bir kunim qizg'in kechadi. Ayol kishi uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak.

Maqolamizda nomlari keltirilgan harbiy soha malikalari haqida uzoq so'z yuritish mumkin. Muxtasar qilib aytganda, oilasi va kasbini aziz bilgan ayollarimiz hamisha hurmat va e'tirofga munosibdir. Shoirona aytganda:

*Onalik baxtidan masrur qalbingiz,  
Vatan ishonchidan mag'rur qaddingiz,  
Tinchlikni asramoq erur ahdingiz,  
Harbiy libosdagi oy malikalar.*

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
“Vatanparvar”

## Seminar

# KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabr kungi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan 14 ta hududiy harbiy prokuraturaning Qurolli Kuchlarda qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishiga mas'ul xodimlari ishtirokida ikki kunlik o'quv-amaliy seminar o'tkazildi.

Prokuror nazorati samaradorligini yanada oshirish va faoliyatni takomillashtirish borasidagi asosiy vazifalarga bag'ishlangan o'quv yig'inida dastlab O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'rinbosari Q. Isroilov, Bosh prokuratura boshqarma katta prokurori Sh. Xo'jaqulov hamda taklif etilgan mutaxassislar tomonidan qurilish sohasida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi va iqtisod qilinishini ta'minlashga doir mavzularda mashg'ulotlar olib borildi.

So'ngra elektr energiyasi va tabiiy gaz tejamkorligini, harbiy xizmatchilarning ish bilan band bo'lmagan oila a'zolari hamda muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlar bandligini ta'minlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar va boshqa shu kabi mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Amaliy mashg'ulotlarda esa Jamaot xavfsizligi universitetida amalga oshirilayotgan qurilish-rekonstruksiya ishlarining

qonuniyligi va Milliy gvardiya organlari tomonidan jamoat tartibini saqlashga oid tadbirlar ijrosi o'rganildi.

Jarayonlar O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tarixi muzeyi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi muzeyi va "Tergov poligoni"da davom etdi.

Yakunda ishtirokchilarning o'quv-amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari darajasi sinovdan o'tkazilib, natijalari baholandi.

Bu kabi tadbirlar xodimlarning sohadagi malakasini oshirish, Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonun buzilishiga murossasiz kurashish va nazariy bilimlarini amaliyotda keng qo'llay olish ko'nikmalarini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Adliya kapitani  
Nurmuhammad NORALIYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokuraturasi bo'lim  
harbiy prokurori**

## Tibbiy ko'rik

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda "Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostida keng qamrovli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

## Ijtimoiy himoya

Unda harbiy xizmatchilar va xodimlar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash, kasalliklarni erta aniqlash va tibbiy maslahatlar berish, mavjud muammolarini o'rganish va hal qilish maqsad qilingan.

Tadbirning amaliy davomi sifatida Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitalida harbiy ayollar va harbiylarning rafiqalari uchun bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Dastlab mas'ullar tomonidan qonunchilikda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi yangiliklar tushuntirildi.

So'ngra malakali tibbiy mutaxassislar tomonidan ishtirokchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

**Adliya podpolkovnigi  
Gulchehraxon TURSUNOVA,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokuraturasi katta yordamchisi**

## Ochiq eshiklar kuni

# BILIMLAR BOYITILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Bosh prokuratura bilan hamkorlikda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchilari ishtirokida o'quv seminari o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi birinchi o'rinbosari O. Xolboyev va Bosh prokuratura boshqarma prokurori U. Bobonazarov tomonidan harbiy prokuratura organlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, "Tergov poligoni"da real vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda ekspert va mutaxassislar tomonidan mashg'ulotlar olib borildi.

So'ngra ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi muzeyi va mavjud sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

**Adliya polkovnigi  
Abduaziz XODJAYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokuraturasi  
bo'lim harbiy  
prokuror-kriminalisti**

## Qaror va ijro

# INSON MANFAATLARINI TA'MINLASH YO'LIDA



So'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizning mudofaa qudrati va jangovar salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ham keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.



Toshkent viloyati Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismda o'tkazilgan ochiq eshiklar kuni va sayyor qabul tadbiri ham shunday ezgu sa'y-harakatlar jumlasidan.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari va mahalliy yoshlar uchun tashkil etilgan ochiq eshiklar kuni davomida o'quvchi-yoshlar hamda mehmonlar harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishib, harbiy xizmatchilar tomonidan tayyorlangan faxriy qorovul, qo'ljangi va yo'riqchi itlarning ko'rgazmali chiqishlarini tomosha qilishdi. Harbiy orkestr jamoasining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlaridan bahramand bo'ldilar. Katta tajribaga ega bo'lgan harbiy

xizmatchilar bilan o'tkazilgan davra suhbatida esa o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.

Kunning ikkinchi yarmida o'tkazilgan sayyor qabulda esa harbiy xizmatchilarning muammo va kamchiliklari o'rganildi. Qo'mondonlik, harbiy qism, Toshkent harbiy sudi va harbiy prokuraturasi mas'ul vakillari ishtirok etgan mazkur tadbirda har bir murojaat qonun doirasida atroflicha o'rganildi. Vaqt va o'rganish talab qilinadigan masalalar ijrosi bo'yicha mutasaddilarga topshiriq berilib, ijrosi nazoratga olindi.

**TOQQQ matbuot xizmati**





Jangovar topishmoqlar

# IKKI BOTIR QILICHLASHAR...

(qaychi)



O'zbek xalqi azaldan donishmand kelgan. Xalq dostonlaridan tortib, topishmog'-u matallar, askiya-yu yumorlar zamirida elning asriy orzulari, g'am va iztiroblari, isyon-u ifoatlari bor. Hech bir hodisa yo'aqi, xalqning tiliga tushmagan, uning yuksak naql va topishmoqlaridan joy olmagan bo'lsa. Ayniqsa, urush va talato'plarining tavsifi folklor asarlarda o'zgacha bo'yoqda namoyon bo'ladi

Biz ushbu maqola orqali xalq topishmoqlarining bir parchasini tahlilga tortar ekanmiz, undagi tashbehtar, tazod-u mubolag'alarning qanchalik topib aytilgani, urush va bahslar, qurol-anjomlar vositasida nazarda tutilayotgan detallar sizni-da hayron qoldirishiga ishonamiz.

### Topib aytilganidek:

O'yin, o'yin, o'yinim,  
Ko'ngil ochar to'yinim.

Topishmoqlar xalq dardini ifodalovchi eng yorqin va qulay janr hisoblanadi. Uning qay ohangda aytilishi-yu, qanday ma'no tashiyotgani esa alohida mavzu.

Mushtlab-mushtlab urarlar,

Muncha gunoh qilibman.

O'tga solib yoqarlar,

Muncha osi(y) bo'libman.

**Topishmoqning shu yerigacha o'qigan o'quvchi azob chekayotgan inson holatini tasavvur qilsa, keyingi bandda esa yashiringan ma'no qiyofasi ochilib boradi:**

Muncha meni xorlarlar,

Bilmam nima qilibman.

Muncha meni sevarlar,

Qanday shirin bo'libman.

Topishmoqning javobi xamir va non. Ammo bular asosiy masala emasligini hisobga olsak, keyingi bitiklarda ham maqsad-muddaolar ayonlashadi.

Xilla xiloyim bor,

Janda-kulohim bor.

Boshimga urdilar pichoq,

Mening ne gunohim bor?

Siz topishmoqning javobi qovun ekanini topishingiz mumkin, ammo undagi tashbehtarining tag zamirida nima yashiringanini anglash - alohida hodisa. Bu kabi topilmalarning kuchi

shundaki, voqealar nafaqat mamlakat, balki unda sodir bo'layotgan urushlarning pinhonaligiga ham ishora qila oladi. Masalan:

Hozir sizga bir buyum haqida aytilgan to'rt topishmoqning shaklini keltiramiz. **Birinchisi:** ikki podshoh qon chiqarmay urishadi. **Ikkinchisi:** ikki botir qilichlashar. **Uchinchisi:** ikki bo'ri tog'da o'ynar, chang chiqarmay, ikkisi ham bir bosh yeydi, qon chiqarmay.

Ushbu topishmoqning to'rtinchi variantida o'zgachalik ko'zga tashlanadi:

Fotima-Zuhra urishadi,

Merosini bo'lishadi.

Asrlar avval to'qilgan ushbu jummalarni bugungi kunimizda urushdan-da xavfliroq tus olayotgan axborot xurujlariga bemalol bog'lash mumkin. Topishmoqning javobi esa oddiy qaychi.

Ayniqsa, jang tasviri voqealarini izohlash, yashiringan detalning pinhon sirlarini ochishda juda qo'l kelgan.

### Masalan:

Men ajoyib bir askar ko'rdim,

Boshi uzra quvvati.

Ko'p qavatli, yo'q qadri qimmatli,

Suvli yerni aslo bosmas,

Cho'lni poymol qilmay qo'yimas.

Demak, u shunday askarki, quvvati boshida, suvli yerni aslo egallay olmas, uning o'ljasi cho'lda - dov-daraxtlar, xas-xashaklar. Yuqorida gugurt ta'riflanayotgani sezgir o'quvchiga ma'lum.

Yoki:

Ahil bo'lib yashar doim yetmish mard,

Tani yonib, elga qiladi xizmat.

Ushbu jummalarda ham gugurt yashiringan bo'lib, yondashuvi bilan yuqoridagi izohlardan farq qiladi.

Xalq mubolag'a orqali kichik narsalarga ham shiddatli ta'rif bera oladi.

**Masalan, Shapaloq yurtiga borgan botirning jangda halok bo'lishi zamirida pashsha turganini quyidagicha izohlash mumkin:**

O'zi yo'qday, botirim,

Ovozi o'qday, botirim,

Shapaloq yurtga borib,

O'lib qolgan, botirim.

**Yoki ignaning angishvona bilan o'zaro aloqasi ham quyidagicha izohlanadi:**

Yalang'och qochadi,

Yorg'oqli quvadi.

Darvoqe, xalq topishmoqlarida posbon va bahodirlar ularga xos va mos bo'lgan detallar bilan omixta ko'rinishga keltiriladiki, beixtiyor topilmalarning chinligiga amin bo'lasiz. **Masalan, qulf haqida:**

Posbonidir u uyning,

Ko'zi, tili yo'q uning.

**Qamish haqida aytilgan topishmoq ham o'z o'rnida qo'llanilganiga shubha qilmaymiz:**

Son-sanoqsiz qilichli,

Uzun bo'yli bahodir.

Yetar uzala tushib,

Shovullab bexavotir.

Darvoqe, qilich motivi ham ko'pgina topishmoqlarning kalitini ochib beruvchi asosiy kalit vazifasini o'taydi. **Masalan, tong yoritishini tasviri:**

Bundan otgan qilichim,

Zangar borib ochildi.

**Suvni ifodalash uchun:**

Qilich urdim - o'rni yo'q.

**Ustarani ifodalash uchun:**

Yumaloq tepada qilich o'ynar.

**Shamni ifodalash uchun:**

Qilich uchi qaltiroq.

**Qilichning o'zini ifodalash uchun:**

Qora biyam qalt etdi,

Qobirg'asi yalt etdi.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shu bilan birga, miltiq va o'q motivlari ham topishmoq mohiyatini ochishda faol qatnashadi:

**Tumshug'i uzun - tog'ni teshar.** Yalt-yalt etar - yamlab ketar. Zing etdi, zingrab ketdi, oq quvrayning boshini chalib o'tdi,

ko'rdingmi? Bolta urdim, Badaxshon ketdi. Oq kuchugim ang etdi, tovushi Qo'qonga yetdi. Og'izginasi o'ymoqday, baqirgani toyloqday, kabi topishmoqlar shular jumlasidandir.

Aslida bu kabi topishmoqlarning o'quvchiga beradigan eng katta ma'naviy ozuqasi ijodiy yondashuvni his etish va o'rganishdir. Topqirlik va hodisalarning mag'zini chaqa olish ko'nikmasi har qanday asarni chuqur anglash zavqini oshirishga xizmat qiladi.

### Masalan:

Tirik kelib, o'likdan osh so'radi,

O'lik turib, tirikni bo'g'ib oldi.

Ushbu topishmoqda aytilayotgan tirikning o'likdan osh so'rashi manzarasini katta falsafiy tushuncha sifatida ko'rish mumkin. Buning aksi bo'lishi esa bizni topishmoqning mohiyatiga olib kiradi. Javob sichqon va qoppqon. Ammo shunday ta'riflar ham borki, o'quvchi javobini bilmagunicha topolmasligi ham mumkin.

### Masalan:

Otamdan bir meros oldim,

Yerga ko'msam chirimas.

Har qancha o'ylamang, misralarda nima nazarda tutilayotganini birdan ilg'ay olmasiz. Javob ism ekanini bilganingizdan so'ng esa o'zaro mutanosiblikni anglaysiz. Yoki quyidagi topishmoqlarning javobi bitta bo'lishiga qaramay, sizga ular dastavval yarq etgan xulosalarni bera olmaydi:

**Birinchisi:** hakkam cho'loq yer teshar.

**Ikkinchisi:** cho'loq otasiga go'r qazir.

**Uchinchisi:** o'tmas pichoq yer kavlar.


Bu topishmoqlarning yagona javobi - tomchi.

So'zni muhtasar qilsak, jang-u jadallar xalq ijodiyoti va folklorida uzoq yillardan buyon tildan tilga o'tib kelayotgan alohida mavzudir. Jangnoma dostonlardan tortib, qahramonlik dostonlarigacha alplar jang bilan sinaladi, obro' topadi, chinakam botirga aylanadi. Eposlarga aylangan dostonlar, topishmoq va matallar esa o'zining sodda va ravon tili, qofiyalanishi, tez yodda qolishi bilan asrlar osha yashab qolaveradi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"

Bu qiziq!

# MASHHURLAR HAYOTIDAN BIR SHINGIL



**EYNSHTEYN** o'z davrida chinakam daho, ilm-fan olamining yetuk vakili hamda o'zining yumor hissiga chanqoqligi bilan ham ajralib turgan.


"Yoshligimda oyog'imning bosh barmog'i ertami-kechmi paypog'imni teshib chiqishini payqab qoldim. Shu-shu paypoq kiymay qo'ydim". Ha, xuddi shunday! Butun umr paypoq kiymay yurgani olimning g'alati odatlaridan biri edi.

Eynshteyn shunday degandi: "Muvaffaqiyat uch qismdan tashkil topadi: omad, o'yin va tilni tiyish!". Tilni tiyishni maslahat bergan olimning eng mashhur suratida esa u tilini chiqargancha turibdi. Bu surat ilm-fan olamida ham o'ziga xos quvnoqlik borligiga ishora ekanini olimning o'zi ta'kidlagan. Surat 1951-yil 14-mart (*Albertning tug'ilgan kuni*)da tushirilgan.

**UILYAM SHEKSPIR** 23-aprelda tug'ilib, aynan 23-aprelda vafot etgan. Uning Gamlet ismli o'g'li bo'lgan.

Shekspir davrida haqiqatan ham Mauritsio Otello degan shaxs Italiyada yashagan. Lekin u oq tanli italiyalik dengiz kapitani bo'lgan.

Ma'lumki, Shekspir asarlari eski ingliz tilida yozilgan. Ularda qarq'ish va qo'pol so'zlar ko'p bo'lib, o'sha zamonlarda zodagonlar oilasida uning asarlarini o'qish madaniyatsizlik belgisi bo'lgan.




**ONORE DE BALZAK** har kuni ijoddan oldin 7-8 finjon qahva ichgan. Umri davomida esa taxminan 50.000 finjon kofe iste'mol qilgan. U nashriyot ochish uchun katta daromad sarflagan, ammo kutilmaganda omadsizlikka yo'liqib, ulkan qarzga botadi. Balzak qarzlaridan xalos bo'lish uchun tinimsiz ijod qilib, sog'lig'iga putur yetkazadi. U qarzdorlardan doim qochib yurgan.

O'z romanida qaysidir qahramoni o'lganida, Balzak infarkt bo'lib qolgan ekan.

**ARTUR KONAN DOYL**ning mashhur obrazi - "Sherlok Xolms"ning prototipi aslida muallifning o'zi bo'lganini zamondoshlari ko'p bora e'tirof etgan. Chunki yozuvchi o'z qahramoni kabi juda sinchkov, o'tkir zehnlilik va topqir bo'lgan. Ko'plab davlat arboblari undan jumboqli masalalarni yechishda yordam so'raganida, Konan Doyl - Xolms uslubida ularga ko'p bor ko'maklashgan.

Darvoqe, Artur Konan Doyl badiiy ijoddan tashqari, tabobat bilan mashg'ul bo'lgan. Bunga uning yoshlik yillarida Edinburg universitetining Tibbiyot fakultetida tahsil olgani turtki bo'lgan. Shuning uchun ham Doyl o'z asarlarida tibbiy bilimlari va tajribalarini, izquvarning sherigi doktor Uotson siymosida mohirona aks ettira olgan.



Nobel mukofoti sohibi **ERNEST HEMINGUEY** oddiy yozuvchigina emasdi. Zamondoshlari uni sportchi va sayyoh, ovchi hamda harbiy muxbir sifatida tan olgan. Har qanday bellashuvda g'olib bo'lishga intilgan, jiddiy vaziyat va mojarolar, sarguzashtlar adib hayotida istagancha topiladi.

Ma'lumki, Heminguey hayotida qurol bilan bog'liq o'ta xavfli vaziyatlar ko'p bo'lgan va u har gal tasodif tufayli omon qolgan. Janglarda tanasini 273 mina parchasi jarohatlagan, oyog'ini esa pulemyot o'qlari shikastlagan. U besh marta turli avariya va yetti marta halokatli voqeani boshdan o'tkazgan. Kuchli lat yeyish, suyak sinishlari, bosh miya chayqalishiga duch kelgan. Ovda bo'lganida ikki marta zo'rg'a omon qolgan, bir marta o'rmon yong'ini vaqtida yonib ketishiga sal qolgan. 60 yoshida 90 kilogramm vazn va 185 santimetr bo'y-bastga ega bo'lgani holda, 50 metr masofadan do'stlaridan biri og'ziga qistirgan papirosning yonib turgan cho'g'ini bexato nishonga urgan... Taqdir uning bardoshini istagancha sinovdan o'tkazgan. Xullas, Heminguey qahramonlarining sobitligi va bardoshini o'zida sinab ko'rgan. Balki shuning uchun ham uning "Alvido, qurol!", "Chol va dengiz" kabi ko'plab asarlari millionlab kitobxonlarning qalb mulkiga aylangan.

## Bu fakt

- Eynshteyn jon berayotganida uning so'nggi so'zlari o'zi bilan birga ketgan, chunki yonida o'tirgan ayol nemischan tushunmagan.
- Shekspir va Servantes bir kunda - 1616-yilning 23-aprelda vafot etgan.
- Ingliz yozuvchisi Virjiniya Vulf aksar kitoblarini tik turgan holda yozgan.
- Sara Bernar 13 yoshli Julyetta rolini ijro etganda 70 yoshda bo'lgan.
- Uolt Disney bolaligida bir boyqushni qiynab o'ldirgan. Shundan so'ng u jonivorlarni multfilmlarda "tiriltirish"ga kirishgan.
- Yuliy Sezar sochlari to'kila boshlaganini yashirish uchun dafna gulchambarini taqib yurgan.
- Jorj Vashington tomorqasida marixuana yetishtirgan.
- Telefon kashfiyotchisi Aleksandr Bell onasi va xotiniga biron marta ham qo'ng'iroq qilmagan. Chunki ular gung bo'lgan.
- Shotlandiya qiroli Jeyms IV havaskor stomatolog bo'lgan va pul berib, fuqarolarining tishlarini davolagan.
- Bernard Shou ham Oskar sovrini, ham Nobel mukofotini olgan yagona adib sanaladi.

G. XODJAMURATOVA tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



## BIZ HAQIMIZDA

## VATANPARVAR



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

**Tahririyat kengashi:**  
general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otobek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

**Navbatchi:** podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliq'oziyeva  
**Musahhih:** Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5901  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 073 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya